

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani

f.f.n. Sh.Nuriddinov

“ ” 2016- yil

“5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishi
4-bosqich talabasi

MURTAZAYEVA SITORANING

**G‘AFUR G‘ULOM QISSALARI TILIDA SEMANTIK-STILISTIK
VOSITALARNING QO‘LLANISHI**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ S.Murtazayeva

Ilmiy rahbar _____ f.f.n. O.O‘rinova

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi kafedrası mudiri

f.f.n.E.Jabborov

“ ” 2016- yil.

QARSHI- 2016

M u n d a r i j a

KIRISH.....	3
I BOB. G‘AFUR G‘ULOM QISSALARIDA SO‘Z KO‘CHMA MA’NOSINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI.....	6
1.1. Yozuvchining metaforalardan foydalanish mahorati.....	8
1.2. Yozuvchining metonimiyadan foydalanish mahorati.....	21
1.3. Yozuvchining sinekdoxadan foydalanish mahorati.....	23
Bob bo‘yicha xulosalar.....	30
II BOB. G‘AFUR G‘ULOM ASARLARIDA CHEGARALANGAN LEKSIKANING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI.....	32
2.1. G‘. G‘ulom asarlarida arxaik so‘zlarning uslubiy xususiyatlari	32
2.2. G‘. G‘ulom asarlarida tarixiy so‘zlarning qo‘llanishi	36
2.3. G‘. G‘ulom ijodida dialektal so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.....	42
Bob bo‘yicha xulosalar	56
XULOSA.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	59

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov ona tilimiz jozibadorligi va uni yanada taraqqiy ettirish haqida soʻz yuritib: “Maʼlumki, oʻzlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy-maʼnaviy bogʻliqlik til orqali namoyon boʻladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”¹, - degan edi.

Ona tilini puxta oʻrganish gʻoyaviy ishlar orasida eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Oʻz navbatida milliy tilni chuqur oʻzlashtirish, uning adabiy manbalari tilini maxsus tadqiq etish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir. Shu maʼnoda turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari tilini milliy til manbai sifatida chuqur oʻrganish, unda qoʻllangan har bir soʻzning bosh lugʻaviy va koʻchma, yaʼni matniy maʼnolarini aniqlash, soʻzning eskirishi, fonetik, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar oʻtishi bilan maʼnoning kengayishi va torayishi, yangi maʼno kasb etishi, asar ruhiyatiga xos ijodkor ichki tuygʻularini tushunish kabi til bilimi bilan bogʻliq masalalarni ilmiy asoslash mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishda qoʻyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

- Nazm tili leksik jihatdan badiiy uslubning ajralib turuvchi turidir. Sheʼriy janrga xos xususiyat har bir asarning oʻziga xos leksikasida namoyon boʻladi. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib «Gʻafur Gʻulomning nazmiy asarlari tili leksikasi» ni tadqiq etishda quyidagi masalalar eʼtiborni qaratish zarurligi sezildi:

- Gʻafur Gʻulom asarlari tili leksikasi hanuzgacha tadqiqot manbai boʻlib kelmoqda.

- XX asr 30-yillar oʻzbek adabiy tili xususiyatlarini oʻzida mujassamlashtirgan yozuvchi nasriy asarlari leksikasini oʻrganish oʻzbek tili taraqqiyotining oʻziga xos jihatlarini yoritish uchun ahamiyatlidir.

- Soʻz sanʼatkorining nasriy asarlarida falsafiy, axloqiy, taʼlimiy

¹ Ислом Каримов. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент. “Маънавият”, 2008. –Б.83.

mushohadalar yoritilgani bois, xalqning o'sha muhitdagi dunyoqarashi, e'tiqodi, milliy urf-odatlar, tafakkuri haqida ma'lumot beruvchi manba hamdir.

- Yozuvchi asarlarida o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi leksik birliklar shevaga oid nutqiy o'zgachaliklar, yozuvchi tomonidan hosil qilingan o'ziga xos emotsional-bo'yoqdorliklar, ayniqsa, qadimgi turkiy eski o'zbek tiliga xos til birliklarining faol ishlatilgani ko'rinadi.

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili. G'afur G'ulom nasriy asarlari tili leksikasini maxsus o'rganishda quyidagi masalalarni yoritish ko'zda tutildi:

- nasriy asar tili haqida umumiy ma'lumot berish;
- badiiy asar tili leksikasini o'rganishning o'ziga xos tamoyillarini belgilash;
- so'z san'atkorining o'ziga xos so'z qo'llash uslubini aniqlash, undagi jonli xalq tiliga xos xususiyatlarni topish;
- nazmiy asarlardagi ekspressiv - bo'yoqdorlik til birliklarini tahlil etish;
- asar tilida eskirgan, arxaiklashgan so'zlar semantik taraqqiyotini aniqlash;
- tadqiqot yuzasidan umumiy xulosaga kelish.

So'z badiiy obraz yaratuvchi asosiy vosita ekanligi so'zdagi denotatsiya, konotativ ma'noning ifodalanishi tarixiy so'zlar, arxaizm, dialektizm va boshqa leksik vositalarning til sistemasidagi tutgan o'rni va stilistik roli kabi masalalarni yoritib berishdir. Asosan, semantik-stilistik, komponent tahlil, tavsiflash, qiyoslash tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- G'.G'ulom hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalar guruhi aniqlandi va lingvopoetik aspektida tahlil qilindi;
- chegaralangan leksikaning poetik aktuallashuvi, badiiy obrazlilik qimmati ko'rsatildi;
- tarixiy so'zlarning (arxaik so'zlar kabi) stilistik imkoniyatlari yozuvchi hikoyalari misolida ko'rsatib berildi;
- dialektizmlarning tasviriyligi, estetik-ta'sirchanligi faqat personaj nutqida emas, muallif nutqida ham ifodalanishi mumkinligi isbotlandi;

– semantik-stilistik vositalarning xususiyatlari yozuvchining individual uslub qirralari bilan bogʻliq holda oʻrganildi; shuningdek, jonlantirish sintaktik hodisa sifatida koʻrsatilib, uning komponent tuzilishi aniqlandi;

– tadqiqotda lingvopoetikaning qiyosiy tahlil usuliga murojaat qilindi va Gʻ.Gʻulomga xos lingvistik mahorat Oybek va A.Qahhorning soʻz qoʻllash mahorati bilan qiyosan tadqiq etildi.

Tadqiqot predmeti va obyekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda Respublikamiz va viloyatimizning taniqli tilshunos olimlari tomonidan yaratilgan darslik, monografiya, qoʻllanma va ilmiy maqolalari hamda Gʻafur Gʻulomning badiiy asarlaridan olingan misollar, toʻplangan maʼlumotlar ishimizning materialini tashkil qiladi.

Yozuvchi hikoyalarida qoʻllangan leksik-stilistik vositalarning badiiylikka xizmat qilishini lingvopoetik aspektda tadqiq etish *tadqiqot obyekti* boʻlib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda ilgari surilgan gʻoyalarning erishilgan yutuqlari va chiqarilgan nazariy xulosalaridan akademik litsey va kasb – hunar kollejlari talabalari va umumtaʼlim maktablarining oʻquvchilari keng foydalanishlari mumkin ish amaliy islohotdan ahamiyat kasb eta oladi. Gʻafur Gʻulom asarlari tili va uslubi bitiruv ishi sifatida ilk bor tadqiq qilinishidir.

Ishning tuzilishi va hajmi. Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, 62 betni tashkil qiladi.

I BOB. G‘AFUR G‘ULOM QISSALARIDA SO‘Z KO‘CHMA MA’NOSINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Tafakkur va fikrlashlarimiz milliy g‘oya asosida takomillashayotgan bir davrda o‘z davri ijodkorlarining san’at hisoblangan badiiy asarlari tilini endilikda tadqiq etish ishlari yangicha uslubda boshlandi. G‘afur G‘ulom ijodiga munosabat, asarlari mazmuni va mohiyatini tushunish har bir asarning o‘ziga xos serjilo, purma’no, emotsionallikka boy jihatlari kabi qirralarini ochishga asosdir.

Prezidentimizning “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”¹ deb aytgan da’vatlari, albatta, mohir so‘z san’atkori G‘afur G‘ulom merosini uning nazmiy va nasriy asarlari kabi yetuk mutafakkirlar hayoti va ijodi ularning ilmiy, tarixiy, falsafiy, diniy, axloqiy qarash va g‘oyalariga ilmiy munosabati kabi masalalar o‘rganilishi nihoyatda zarur ekanligiga ishoratdir.

Ona tilini puxta o‘rganish g‘oyaviy ishlar orasida eng asosiy masalalardan hisoblanadi. O‘z navbatida milliy tilni chuqur o‘zlashtirish, uning adabiy manbalari tilini maxsus tadqiq etish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir. Shu ma’noda turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari tilini milliy til manbai sifatida chuqur o‘rganish, unda qo‘llangan har bir so‘zning bosh lug‘aviy va ko‘chma, ya’ni matniy ma’nolarini aniqlash, so‘zning eskirishi, fonetik, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar o‘tishi bilan ma’noning kengayishi va torayishi, yangi ma’no kasb etishi, asar ruhiyatiga xos ijodkor ichki tuyg‘ularini tushunish kabi til bilimi bilan bog‘liq masalalarni ilmiy asoslash muhim tadqiqotlardan biridir.

Ijodkorning turli mavzuga bag‘ishlangan badiiy asarlarida badiiylilikni oshirish, shu bilan birga o‘quvchida real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsional - bo‘yoqdor so‘zlardan foydalanish, turli sohalarga oid so‘z va atamalarni soha mutaxassisi darajasidan ham ortiq o‘ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so‘z san’atkoridan katta mahorat talab etadi.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 87.

Gʻafur Gʻulomning badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli boʻlgan soʻz va atamalar ijodkor uslubiga xos oʻz badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, soʻz sanʼatkorining dunyoqarashi bilan bogʻliq kuzatuvchanlik, turli sohalarga boʻlgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan ijtimoiy, tabiiy sohalarga nisbatan chuqur mulohazakorligidan darak beradi. Haqiqatan ham, Gʻafur Gʻulom asarlaridagi oddiy xalqning mayda kosiblikdan tortib, bozor muomalasi, savdo-sotiq bilan bogʻliq oʻzaro munosabatlari, shuningdek, turli toifadagi insonlar hayotida roʻy bergan hodisalar, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar tafsiloti ijodkor tafakkurida, chuqur joy olganligi kishini hayratga soladi.

Oʻzbek adabiy tilining bugungi taraqqiyot darajasi uning tarixiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlari bilan belgilanadi. Oʻzbek tilining boyish jarayonlarini kuzatish badiiy asarning til va uslub xususiyatlarini diaxronik va sinxronik aspektda oʻrganish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir. Badiiy asar tili muammosi oʻzbek filologiyasining oqsayotgan sohalaridan biridir. Bu muammolarni toʻgʻri va izchil oʻrganishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish muhim masalalardan hisoblanadi. Nasr tili maʼlum miqdorda nazm tilidan farq qiladi. Nasr tilida maʼlum joy xususiyatlarini yaratish jarayonida qahramonlar nutqi orqali dialektal soʻzlar, kasb-hunarga xos atamalar, jargonlar va shunga oʻxshash leksik vositalardan keng foydalanish mumkin. Nasr tili leksik jihatdan badiiy uslubning ajralib turuvchi turidir. Janrga xos xususiyat har bir asarning oʻziga xos leksikasida namoyon boʻladi.

Soʻz sanʼatkorining nasriy asarlarida falsafiy, axloqiy, taʼlimiy mushohadalar yoritilgani bois, xalqning oʻsha muhitdagi dunyoqarashi, eʼtiqodi, milliy urf-odatlar, tafakkuri haqida maʼlumot beruvchi manba hamdir. Yozuvchi asarlarida oʻzbek adabiy tilining toʻliq shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi leksik birliklar shevaga oid nutqiy oʻzgachaliklar, yozuvchi tomonidan hosil qilingan oʻziga xos emotsional-boʻyoqdorliklar, ayniqsa qadimgi turkiy eski oʻzbek tiliga xos til birliklarining faol ishlatilgani koʻrinadi.

Gʻafur Gʻulom mumtoz adabiy manbalarni chuqur oʻzlashtirgan ijodkor allomadir. U eski oʻzbek yozuvida bitilgan mumtoz adabiy asarlarni, ilmiy, tarixiy kitoblarni erkin mutolaa qilar edi. Ular haqida chuqur ilmiy mulohazalar yuritgan tadqiqotchi hamdir.

Gʻafur Gʻulomning badiiy asarlari tilining originalligi shundaki, har bir soʻzni xoh u sof turkiy, xoh arabiy, xoh forsiy soʻz boʻlsin, ular ijodkor tomonidan mazmunan chuqur oʻzlashtirilib, oʻz matniy mazmundorligini egallagan. Har bir asar ruhidan kelib chiqib oʻrinli ishlatilgan. Shoirning nazmiy na nasriy asarlarining har biri oʻziga xos original uslubda yaratilganligi ham ana shundadir. Yozuvchi badiiy asarlarida qoʻllanilishi chegaralangan leksikaga oid maxsus professional, kasb-hunarga oid soʻzlar, dialektizmlar, jargonlar, tarixiy va arxaik kabi eskirgan soʻzlar nihoyatda oʻrinli ishlatilganligi bilan ham xarakterlidir. Bu esa ona tilimiz leksikasi boyligini koʻrsatishi bilan unutila borayotgan soʻzlarni qayta tiklanishiga ham imkoniyat tugʻdiradi.

Xalq madaniyati va turmushining onasi, donishmandligining koni boʻlgan tildan foydalanishda Gʻ. Gʻulom qanchadan – qancha soʻz tanlash, saralash «azobi»ni tortgan deysiz. Ana shu azob oqibatisiz qolmadi. Shoir sheʼrlarning har bir satridan, ifodalaridan uning boʻyi basti shundoqgina koʻrinib turibdiki, mazkur ishda adibning shu boradagi xizmatlarini maʼlum darajada ochib berildi.

Adabiy asarning qimmatini, avvalo, uning badiiy tili bilan belgilanadi. Badiiylik har qanday adabiyotning bosh mezonini boʻlib, u adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganiladi. Soʻzning koʻchma maʼnolari ana shu badiiylikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Til jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri, hissiyoti bilan uzviy ravishda rivojlanib boradi. Natijada soʻzning leksik maʼnosida, semantik strukturasida maʼno qirralari kengayib boradi. Soʻzning ana shunday maʼno taraqqiyoti jarayonida subektiv munosabatlar muhim ahamiyatga ega². Chunki subyekt oʻzining ideolekti bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum bir tushunchani tilda ifodalash uchun uni borliqdagi maʼlum bir narsa-hodisa, belgi-xususiyatga qiyoslaydi.

¹.Абдуллаев А.Ўзбек тилида экспрессивлиқнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 5.

Ma'lumki, tilshunoslikda so'zning ma'no mundarijasida atash, ifoda semalari bilan bir qatorda yo'ldosh semalar ham borligi e'tirof etilgan³. Taqqoslash jarayonida so'zning ifoda, yo'ldosh semalari oldingi o'ringa chiqib, ko'chma ma'nolar hosil bo'lishida muhim omil sanaladi. So'zning ko'chma ma'nolari ko'chimlar (trop) termini ostida birlashadi.

Demak, «ko'chimlar inson tafakkurining qiyoslash jarayonida tug'iladi, qiyoslashning hosilasi sifatida yaratiladi»⁴.

O'zbek tilshunosligida polisemantik so'zlar, ularning hosil bo'lishi, ko'chma ma'no ifodalash usullari borasida olib borilgan tadqiqotlar o'zining nazariy asoslarini topgan. Bu borada M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, S.Usmonov, I.Qo'chqortoyev, A.Shomaqsudov, T.Aliqulov, R.Yunusov, M.Mukarramov va boshqa olimlarning izlanishlari diqqatga sazovordir.

Ko'chimlar nutqiy obrazlilik, tasviriylilik, ekspressivlik, emotsional his-tuyg'ularni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ko'chimlar badiiy adabiyotga bayon etiladigan fikrning ta'sirini orttirish, tinglovchida kuchli taassurot uyg'otish, umuman, asar badiiyligini ta'minlash maqsadida olib kiriladi va muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llaniladi. Chunonchi, badiiy adabiyot tili o'zining obrazlilik, tasviriyligi, emotsionalligi hamda affektivligi bilan tilning boshqa vazifaviy uslublaridan farq qiladi.

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ijodkordan katta mas'uliyat, alohida mahorat talab qiladi. Mahorat bevosita ijodkorning til bilishi, so'zlarning ma'no tovlanishlarini chuqur idrok etgan holda go'zal va betakror obrazli ifodalar yarata olishi bilan belgilanadi.

So'z badiiy adabiyotning asosiy qurolidir. So'z san'atkorlari undan mohirona foydalanib, o'lmas va betakror, asrlarga tatigulik adabiy meros qoldiradilar. Zero, adabiyot so'zga katta mas'uliyat tuyg'usi bilan yondashuvchi ijodkorlar tufayli rivojlanadi. So'z qo'llash va undan foydalanishni san'at

²Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 101; Нейматов Х. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 58; Қобулжонов Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2000.

³Абдуллаев А. Кўрсатилган асар. – Б. 22.

darajasiga ko'tara olgan ijodkorlardan biri G'afur G'ulomdir. Adib badiiy nutqning obrazlilikini, tasviriyligini hamda ta'sirchanligini oshirish uchun tilning turli tasviriylaridan keng foydalangan. Shulardan biri so'zning ko'chma ma'nolaridir. Yozuvchi hikoyalari tilini bezashda ko'chimning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi turlaridan mohirona foydalanib, o'zining betakror uslubini yaratdi. G'.G'ulomga xos lingvistik mahoratni belgilashda mazkur jihat o'ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Ushbu bobda yozuvchining so'zlarga qo'shimcha vazifalar yuklash, leksemalarning denotativ va konnotativ ma'nolaridan foydalanish mahorati haqida fikr yuritiladi hamda o'zni bilan qiyosiy tadqiq uchun zamondosh yozuvchilar ijodiga murojaat qilinadi.

1.1. Yozuvchining metaforalardan foydalanish mahorati

Jahon tilshunosligida ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar bir necha turga bo'lib o'rganiladi. Jumladan, fransuz tilshunosi J.Maruzo ko'chma ma'nolarni metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi. Rus tilshunoslari A.A.Reformatskiy hamda D.N.Shmelev ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalarni to'rt guruhga bo'lganlar, ya'ni J.Maruzodan farqli ravishda funksiyadoshlik hodisasini qayd etadilar⁵.

O'zbek tilshunoslari ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalarni guruhlarga ajratishda rus tilshunoslari bilan deyarli hamfikrdirlar⁶.

Ko'chimlar ichida asosiy o'rinni metafora egallaydi. Badiiy asar tilining obrazlilik, ta'sirchanligini oshirishda metaforalarning roli nihoyatda kattadir.

Metafora obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning ruhiy olamida kechayotgan holatlarni tinglovchi yoki o'quvchi kutmagan favqulodda badiiy hukm asosida tasvirlash yoki ifodalashga yo'l ochadi. Shuning uchun metaforalar eng ko'p ijodiylikni talab etishi bilan boshqa badiiy tasvir vositalaridan farq qiladi. Metafora yaratish ijodkordan keng dunyoqarash, olam va odam haqida chuqur fikr yurita olish, ruhiyat va tabiatni yaxshi bilishni talab etadi.

⁵ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 52-53.

⁶ Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент, 1962. – Б. 20-25; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975. – Б. 126;

Metafora o'xshashlik asosidagi ko'chimidir. Metafora umumfilologik hodisa bo'lganligi bois tilshunoslar va adabiyotshunoslar e'tiborini o'ziga tortib keladi. Shuning uchun metafora hosil bo'lishi va uning tabiatiga oid qarashlar ham xilma-xildir.

O'zbek tilshunosligida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi va ma'no ko'chishining o'xshashlikka asoslangan turi tarzida e'tirof etiladi. Metafora haqidagi dastlabki ma'lumotlar R.Qo'ng'urov, M.Mirtojiyev, M.Mukarramov, E.Qilichev kabi olimlarning ilmiy risolalarida uchraydi⁷. Bundan tashqari, metaforaning lisoniy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi maqolalar e'lon qilingan. Bularda metafora asosida nisbiy o'xshashlik mavjudligi nazarda tutiladi. Tilshunoslar metaforalarni til va nutq hodisasi sifatida lingvistik va badiiy metaforalarga bo'lib o'rganishda deyarli hamfikrdirlar. Biroq badiiy metaforalarning tabiatini tadqiq etishda o'zaro farqli xulosalarga keladilar. Jumladan, I.Qo'chqortoyev badiiy metaforalarni talqin qilishda metaforaning lingvistik tabiatini chetlab o'tadi va nutq hodisasi sifatida estetik vazifasi, obraz yaratish funksiyasini tahlil qiladi. D.Bikerton metafora tabiatiga lisoniy nuqtai nazardan yondashish zaruriyatini nihoyatda dolzarb hisoblab, "...nolingvistik qarashlar masala mohiyatini ochishdan ko'ra ko'proq qorong'ulashtiradi va ta'kidlash mumkinki, ularning mag'lubiyati ham aynan ularning nolingvistligi bilan belgilanadi", deb baholaydi⁸.

Metaforalarni asar badiiyatini ta'minlovchi lisoniy vosita sifatida o'rganar ekanmiz, ko'proq subyektivlik tamoyiliga asoslanamiz (bunda, albatta, obyektivlikdan chekinmaymiz). Subyektivlikda baholanayotgan narsa baholovchi nazaridan ko'riladi. Ya'ni bu o'rinda subyektning dunyoqarashi, obyektga shaxsiy munosabati, baholashdan kutilgan maqsadi, baholash jarayonini boshqarishi nazarda tutiladi. O'zbek tilshunosligida metaforalar o'zining nazariy asosini topgan bo'lsa-da, biroq alohida olingan yozuvchi ijodida qo'llangan metaforalarning amaliy jihati hali yetarlicha o'rganilgani yo'q. Zero, metaforalar yozuvchining

⁷ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 15-19; Миртожиев М. Кўрсатилган асар. – Б. 51-75; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 11-15; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 71-79.

⁸ Миртожиев М. Кўрсатилган асар. – Б. 51-75;

individual uslubini, asar badiiyatini ta'minlovchi muhim tasviriy vositadir. Shu bois biz G'.G'ulom asarlarida qo'llangan metaforalarning amaliy jihatlarini ochishga harakat qildik.

Metaforalar ma'lum ma'noda nominatsiya jarayonini boshqaradi va shu jihatiga ko'ra lingvistik hamda badiiy metaforalarga bo'linadi. Lingvistik metaforalar borliqda nomi yo'q bo'lgan narsa-tasavvurlarga nom berish vazifasini bajaradi: stolning *oyog'i*, o'choqning *og'zi*, radioning *qulog'i* kabi. Badiiy metaforalar esa borliqda mavjud bo'lgan narsa-tasavvurlarga qayta nom berish (ikkilamchi nominatsiya) jarayonida voqelanadi.

Metaforalar o'z xususiyatlariga ko'ra doimiy va individual (xususiy - muallifiy) metaforalarga bo'linadi. Bizningcha, doimiy metaforalarga: a) birlamchi nominatsiya jarayonida hosil bo'lgan lingvistik metaforalar; b) ikkilamchi nominatsiya jarayonida hosil bo'lgan, biroq tilda qayta-qayta takrorlanishi oqibatida uzual ma'no doirasida til hodisasiga aylangan badiiy metaforalarni kiritish mumkin. Demak, ularni qisqaroq qilib **lingvistik metaforalar va an'anaviy-badiiy metaforalar** deb nomlash mumkin.

G'.G'ulom hikoyalarida doimiy metaforalar salmoqli o'rin egallaydi. Doimiy metaforalarning yuqoridagi ikki holatiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

a) lingvistik metaforalar: *multiqlarning og'zi* («Yalovbardorlikka» she'rida), ...*Мамажон томорқанинг etagida qorayib turgan qishloqni ko'rdi.* («Тирилган мурда») Ko'rinib turibdiki, an'anaviy-lingvistik metaforalar obrazlilik, tasviriylik, affektivlik kasb etmaydi, biroq hikoya badiiyatini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Zero, badiiylik faqat obrazlilik, tasviriylik, ekspressivlik bilan emas, balki so'zlarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llash orqali ham yaratiladi;

b) an'anaviy-badiiy metaforalar: *o'ñ yuzli*, *shirin so'zli* kabi.

G'.G'ulom hikoyalaridan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Yuqoridagi gaplarda metaforalar ma'lum ma'noda obrazlilik, ifodaviylik kasb etsada, biroq ularda ekspressivlik u qadar kuchli emas. Chunki yuqorida ajratib ko'rsatilgan leksemalar adgerent konnotatsiyali so'zlar bo'lib, ularning semantik

strukturasida ifoda semalarining boʻrttirilishi hisobiga ijobiy va salbiy pragmatik semalar yuzaga chiqqan va metaforik koʻchma maʼnolar hosil boʻlgan. Ushbu soʻzlar tilda qayta-qayta takrorlangani bois til hodisasiga aylangan, shuning uchun ularda ekspressivlik deyarli yoʻq. Shunday boʻlsa-da, bunday leksemalar badiiylilikni taʼminlashda muhim tasviriy vosita hisoblanadi.

Gʻ.Gʻulom hikoyalarida individual metaforalar oʻta sinchkovlik bilan qoʻllanganki, bu adibning oʻziga xos takrorlanmas uslubini belgilaydi. Adib individual metaforalar yaratishda ot, sifat, feʼl turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangan.

1.1.1. Ot-metaforalar

Gʻ.Gʻulom ot turkumiga oid metaforalardan qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini ijobiy va salbiy baholashda, ularning ijtimoiy mavqei, fiziologik holatini tasvirlashda, ironiya hosil qilishda, personajlarning xarakter-xususiyatlari, ijtimoiy mavqei, tashqi qiyofasi, intim-ruhiy holatlarini tasvirlashda, qahramonlar nutqini individuallashtirishda mohirona foydalangan. Masalan: *Mamajonning koʻngliga chiroq yoqsa yorishmaydi*.

Keltirilgan jumlada metaforik qoʻllangan *chiroq* leksemasi oʻzining genetik semasini chetlashtirib, qoʻshimcha (ijtimoiy-shartlangan) semalari bilan koʻchma maʼno hosil qilgan. Bundan kelib chiqadiki, *chiroq* leksemasi quyidagi semem strukturaga ega:

chiroq – a) narsa-buyum; b) yorugʻlik tarqatadi; v) kishi ruhiyatini koʻtaradi; g) fayz bagʻishlovchi; d) insonga hamroh va h.k.

Bunda *a* va *b* semalar *chiroq* leksemasining genetik semalari hisoblanadi. Yuqoridagi kontekstda *v*, *g*, *d* semalar yorqinlashib, metaforik koʻchma maʼno hosil qilishda va badiiy mazmun ifodalanishida aktualizator boʻlib xizmat qilgan. Yozuvchi domla obrazini individuallashtirishda *chiroq* leksemasining xususiyatlari bilan qahramon xarakter-xususiyatlarini chogʻishtirib, kuchli konnotatsiyali affektiv obrazli ifoda yaratgan. Hikoyada tasvirlanishicha, domla mahallaning fayzi, katta-kichik uni hurmat qiladi. Chunki domla bola bilan boladek, yosh bilan yoshdek, qari bilan qaridek suhbatlashar, ularning qalblariga yoʻl topib,

xursandchiliklariga, dardu hasratlariga sherik bo‘lib, ularning ruhiyatini ko‘tarar edi. Adib qahramonining ana shu ijtimoiy mavqeini chiroqqa qiyoslab, o‘zining ijobiy pragmatik maqsadini *chiroq* leksemasini metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali yuzaga chiqargan.

Ma’lumki, ijodkorlar personajlarning tashqi ko‘rinishidagi salbiy holatlarni ifodalash uchun salbiy pragmatik ma’nodagi metaforalarni qo‘llaydilar, ijobiy holatlarni ifodalash uchun esa, aksincha, ijobiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan metaforalarni ishlatadilar. G‘.G‘ulom ijodidagi portret yaratish uslubi an’anaviy ravishda bir-biridan keskin farq qiladi. G‘.G‘ulom personajning tashqi qiyofasini tasvirlashda metaforaga nisbatan o‘xshatishlardan, ba’zan jonlantirishdan unumli foydalangan. Masalan:

Eshon dokani tortib olishi bilan hayhot na ko‘zi bilan ko‘rsin, Rokiya qiz o‘rnida iylanmagan jiq teri, saksonlardan oshib, og‘zida tish balosi qolmagan mukka kampir. (G‘.G‘ulom. «Elatiyada bir ov»)

Keltirilgan matn fragmentida personajlarning tashqi qiyofasini tasvirlashda batafsillik, keng ko‘lamlilik ustuvor (Ularda personajlarning tashqi qiyofasi bilan ichki ruhiy dunyosi dialektik birlikda ifodalanmagan). G‘.G‘ulomning hikoya personaji Sarvar ammaning tashqi qiyofasini tasvirlashdan bosh maqsadi Eshonning komik holatini ifodalashdan iboratdir. Demak, G‘.G‘ulom qahramonlar tashqi qiyofasini qisqa, aniq, obrazli ifodalashda metaforadan foydalanar ekan, ular nihoyatda o‘ziga xosligi, muayyan personaj haqida to‘liq tasavvur berish kuchiga egaligi bilan xarakterlidir.

1.1.2. Sifat-metaforalar

Sifat leksemalarning asosiy xususiyati belgi ifodalash bilan birga matn tarkibida ko‘chma ma’no hosil qilish hisoblanadi⁹.

⁹ Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан.ном... дисс. – Наманган, 1997. – Б. 82.

«Ijodkorning dunyoqarashi, gʻoyasi, ruhiy olami, estetik ideali uning har bir obrazi, har bir tasviriy vositasida namoyon boʻladi»¹⁰. Jumladan, Gʻ.Gʻulom ham sifat leksemalardan metaforik maʼno hosil qilishda oʻz ideolekti nuqtai nazaridan yondashadi. U sifat leksemalardan hikoyalari tilining ifodaviyligini taʼminlashda, taʼsirchanligini oshirishda foydalangan.

Yozuvchi metafora hosil qilishda muayyan sifat leksemalarni matn doirasida turli konnotativ maʼnolarda qoʻllaydi, chunki «konnotativ maʼno nutqiy maʼno boʻlganligi uchun unga chegara qoʻyib boʻlmaydi, yaʼni bir leksema bir nutqiy vaziyatda bir xil konnotativ maʼno anglatasa, ikkinchi bir nutqiy vaziyatda yana boshqa konnotativ maʼno anglatishi mumkin»¹¹. Masalan: *Mirjalol quruq bisotidagi eng ogʻir, eng dahshatli haqoratni ishlatd..., («Tirilgan murda») Uning savoliga oqsoqol ham va boshqa hech kim ham javob bermadi. **Ogʻir** jimlik choʻkdi.*

Keltirilgan leksik qurshovlarda *ogʻir* leksemasining genetik semasi – `jislarning fizik xususiyati` chetlashtirilgan hamda qoʻshimcha, ijtimoiy shartlangan ifoda semalari boʻrttirilib, koʻchma maʼnolar hosil qilingan. *Ogʻir* leksemasi har bir kontekstda oʻziga xos poetik aktuallashgan. Jumladan, birinchi leksik qurshovda *ogʻir* leksemasi evfemik tarzda koʻchma maʼno ifodalagan. Uning yuzaga chiqishida `kishini xafa qiladigan`, `koʻngilsiz` (OʻTIL.I.562.) semalari aktual vazifa bajargan. Yozuvchi matn konsituatsiyasida bola tilidan aytilgan qoʻpol, vulgar jummalarni yumshoqroq ifodalash maqsadida *ogʻir* leksemasini evfemik tarzda qoʻllab, asar badiiyligini taʼminlashga erishgan. Ikkinchi leksik qurshovda yozuvchi *ogʻir* leksemasini oʻziga xos tarzda qoʻllab, okkazional maʼnoli metafora hosil qilgan. *Ogʻir* leksemasi leksik qurshovda ijtimoiy shartlangan `ruhiyatga taʼsir qiladigan, tushkun holat` semasi bilan ishtirok etgan. Shu yerda Gʻ.Gʻulom mahoratining yana bir siri ochiladi, yaʼni *ogʻir* leksemasini koʻchma maʼnoda qoʻllab, mavhum holatga ishora qilib, hikoya kompozitsiyasida tugun hosil qilgan hamda ana shu tugun orqali maʼlum bir

¹⁰ Мамажонов С. Услуг жилolari. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 82.

¹¹ Мамадалиева М. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 108.

konsituatsiyaga ishora berilib, asarning ta'sir kuchi orttiriladi. *Og'ir* leksemasining ko'chma ma'nosida hosil qilingan tugun voqea rivojida personaj tilidan bayon qilinib, o'z yechimini topadi.

Endi Oybekning nasriy asarlaridan *og'ir* leksemasi uchun keltirilgan quyidagi misollarga e'tibor qilaylik: *Afandilar, hazrat ulamo janoblari! Turkiston o'lkasi asriy zulmatdan qutulib, endi oyoqqa turmoqda. Ufqimiz endi sekin-sekin yorishmoqda. Lekin hanuz o't va yong'indamiz. Hayot **og'ir** vazifalarimiz mas'uliyatlidir... («Bolalik») Hovli ichkariroq bo'lganidan, hamma uxlab qolganidan, darvozaning **og'ir** gumburiga ichkaridan hech kim chiqmadi. («Qutlug' qon»)*

Berilgan birinchi leksik qurshovda *og'ir* leksemasi qo'shimcha 'mashaqqatli', 'uqubatli', 'azobli' (O'TIL.I.562.) semalari bilan ko'chma ma'no hosil qilgan. Yozuvchi *og'ir* leksemasini ko'chma ma'noda qo'llashda aniq bir g'oyaviy maqsadda turmagani aniq. Chunki asar personaji nutqida keltirilgan jumla ko'tarinki uslubda bayon qilinib, aslida so'zlovchi personajning voqelikka hayrixoh emasligi uning nutqida yaqqol namoyon bo'lgan. Demak, jumla tarkibidagi *og'ir* leksemasi personaj nutqi uchun bezak vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi leksik qurshovda qo'llangan *og'ir* leksemasi qo'shimcha 'salmoqli', 'salobatli' semalari bilan metaforik ko'chma ma'no hosil qilib, voqelikni obrazli tasvirlashga xizmat qilgan, xolos. G'.G'ulom asarlarida esa aksincha, qahramonlar nutqini, fiziologik holatini hamda ichki va tashqi ma'naviy qiyofasini yaratishda, asar kompozitsiyasida voqealar rivojida yechiluvchi mavhum konsituatsiyaga ishora qiluvchi tugun hosil qilishda va nihoyat, ma'lum bir g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishda *og'ir* leksemasining ijobiy va salbiy konnotatsiyali ma'nolaridan mohirona foydalanilgan.

Metaforani tanlash subyekt ixtiyorida bo'lgani uchun metaforani tushunish doim ham oson bo'lavermaydi. Chunki subyekt o'xshashlikni ochadigina emas, yaratadi. G'.G'ulom hikoyalarida qo'llangan *pang, to'mtoq* ("Mening o'g'rigina bolam") leksemalarida ana shu xususiyatni kuzatish mumkin. Bu leksemalarning ma'no qirralari leksik qurshovda namoyon bo'ladi.

Keltirilgan birinchi leksik qurshovda *pang* leksemasi orqali metaforik ko'chma ma'no hosil bo'lgan. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, G'.G'ulom hikoyalari tili bir necha adabiyotshunos olimlar tomonidan yoritilgan bo'lishiga qaramay, ayrim o'rinlarda tadqiq qilinayotgan masala mohiyati to'liq ochilmay qolgan. Bu esa badiiy asar tili umumfilologik yo'nalishda tadqiq qilinishi lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu o'rinda nolingvistik qarashlar masala mohiyatini ochishdan ko'ra ko'proq qorong'ulashtiradi, ularning mag'lubiyati ham aynan ularning nolingvistligi bilan belgilanadi. Masalan, adabiyotshunoslar tomonidan «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidan keltirilgan yuqoridagi parchada ellikboshining g'ayrioddiy xatti-harakatlari bilan bir qatorda *pang tovush bilan gapirishini* uning portretidagi kulgi qo'zg'atuvchi detal sifatida e'tirof etadi¹². Biroq bu bilan masala mohiyati to'liq ochildi, degani emas. Kontekstda metaforik qo'llangan *pang* leksemasining lingvistik tabiatiga e'tibor qaratsak, yozuvchi nazarda tutgan illokutiv (yashirin) maqsad ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

Pang leksemasining genetik semasi quyidagicha izohlangan: «o'zagi qurib bo'sh bo'lib qolgan». Lekin matn doirasida bu leksema genetik semasini chetlashtirib, qo'shimcha `noaniq`, `po'ng'illagan`, `yoqimsiz` (O'TIL.I.570.) ifoda semalari bilan ishtirok etgan va yozuvchining badiiy-g'oyaviy maqsadini tinglovchiga yetkazishda pragmatik ko'prik vazifasini o'tagan.

Yuqoridagi ikkinchi leksik qurshovda salbiy konnotatsiyali *to'mtoq* leksemasi metaforik ko'chma ma'no hosil qilgan. Uning ko'chma ma'no hosil qilishida `mazmuni va tuzilishi jihatdan qusurli`, `chala-chulpa` (O'TIL.II. 248.) kabi ifoda semalari aktualizator bo'lib xizmat qilgan. Yozuvchining *to'mtoq* leksemasini ko'chma ma'noda qo'llashdan maqsadi shunchaki tuzilishi jihatdan qusurli, chala-chulpa yozilgan xatni tasvirlashdan iborat bo'lmay, balki personajning ichki, ma'naviy qiyofasini chizishdir.

«Adabiyot – insonshunoslik bo'lganligi uchun qahramonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlab berish yozuvchilar oldida turgan eng qiyin, eng sharafl

¹² Қўшжонов М., Норматов У. Кўрсатилган асар. – Б. 51.

vazifalardan hisoblanadi»¹³. Gʻ. Gʻulom adabiyotning ana shu nozik qirralarini mohirona egallagan ijodkor. Yozuvchining asarda aytmoqchi boʻlgan salmoqli gapi, targʻib qilmoqchi boʻlgan gʻoyasi, intilgan maqsadi qahramonlar xarakterida mujassamlashgan boʻladi.

Yozuvchining xarakter yaratish mahorati oʻziga xos: u xarakterlarni tasvirlar ekan, ularning hech biriga eksplitsit yondashmaydi, xuddi ularning taqdiriga befarq qaraganday tuyuladi, aslida yozuvchi har bir hikoyasida xarakter yaratar ekan muayyan gʻoyaviy pozitsiyada turadi¹⁴. Yozuvchining ana shu gʻoyaviy maqsadi uning tasviriy vositalari mazmuniga singdiriladi.

1.1.3. Feʼl-metaforalar

Gʻ. Gʻulom metaforik koʻchma maʼno hosil qilishda feʼl-metaforalarni ham ustalik bilan qoʻllab, ulardan voqelikni obrazli tasvirlashda, ekspressivlikni kuchaytirishda hamda hikoyalari badiiyatini taʼminlashda taʼsirchan omil sifatida foydalangan. A. Abdullayev feʼl-metaforalarda ekspressivlik asosan, holatning intensivlik nuqtai nazaridan sodir boʻlishi hamda feʼl-metaforalar hayvonot, parranda, oʻsimlik, hasharot kabilarga xos harakat, xususiyatlarni insonga koʻchirish asosida yaratilishini taʼkidlaydi¹⁵.

Yozuvchi hikoyalarida uchraydigan feʼl-metaforalarda ham yuqorida qayd etilgan holatlar uchraydi va ular badiiy matnda oʻziga xos poetik aktuallashib, badiiy mazmun ifodalaydi hamda umumiy obrazlilikka xizmat qiladi: *Qani ilgarigi muhabbat! Hozirgacha yonmagan yurak boʻlsa, mana shuni eslatishing bilan alanga oladi. **Alanga oldir, yondir!*** («Yodgor»)

Berilgan parchada *alanga olmoq, yonmoq* feʼllari oʻzining nominativ maʼnolarini chetlashtirib, holatning intensivligi nuqtai nazaridan metaforik koʻchma maʼno hosil qilgan. Uning yuzaga chiqishida ijtimoiy shartlangan

¹³ Қодиров П. Тил ва дил. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – Б. 12.

¹⁴ Шарафиддинов О. Кўрсатилган асар. – Б. 20.

¹⁵ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 29-30.

`kuchaymoq`, `avjiga minmoq`, `shiddatli tus olmoq` semalari asos bo`lib xizmat qilgan.

Yozuvchi ana shu ta'sirchanlikni, obrazlilikni ta'minlashda *alanga olmoq*, *yonmoq* leksemalarini ijobiy konnotatsiyali ko'chma ma'noda qo'llab, qahramon nutqini kulminatsion darajaga ko'targan va bu orqali kishi ruhiyatida ko'tarinkilik, ulug'vorlik hissiyotlarini ilhomlantirgan. Yozuvchi metafora mohiyatiga o'zining g'oyaviy maqsadini implitsit tarzda mahorat bilan joylagan. Nazarimizda, go'yo yozuvchi «har qanday metin iroda ham, har qanday mehr ham insoniy munosabatlarda kuch va ma'no kasb etadi. Odam odamzod muhitidan ajrala, mustahkam iroda ham, iliq mehr ham ma'nosiz hissiyotga aylanadiki, uning inson uchun na issig'i bor, na sovug'i...»¹⁶ deyayotganday bo'ladi.

Umuman, G'.G'ulomning metaforadan foydalanish mahorati boshqa ijodkorlardan shunisi bilan farq qiladiki, ularda yozuvchi ideolektida sodir bo'lgan xususiy yashirin ma'nolar implitsit tarzda ifodalanadi. Fikrimiz isboti uchun quyida A.Qahhor va Oybek asarlarida metaforik qo'llangan iymoq leksemasini tahlilga tortdik. Masalan: *Sulaymonov juda **iyib ketdi**, labidagi mamnuniyat tabassumini yashirish uchun, o'ng qo'li bilan so'l mo'ylovini silay boshladi. («Ikki yorti bir butun»)* *Himmatni baland qiling, ona! – shovqin ko'tarishdi yigitlar. Lutfiniso **iyib**, ikki do'ppi va o'n so'm pul uzatdi. («Qutlug' qon»)*

Keltirilgan har ikkala leksik qurshovda ham *iymoq* leksemasi o'zining genetik semasi [«sut emizuvchilarning yelini yumshab ravon sut beradigan holati» (O'TIL.I.319.)]ni chetlashtirib, ifoda semalari hisobiga metaforik ko'chma ma'no hosil qilgan. Birinchi leksik qurshovda *iymoq* leksemasi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi shaklida kelib, holatning intensivligini ta'minlab, `ko'ngli yumshab, erib moyil bo'lmoq` (O'TIL.I.319.) ifoda semasi bilan ko'chma ma'no hosil qilgan. Ikkinchi leksik qurshovda esa *iymoq* leksemasi `himmati oshmoq` (O'TIL. 319-bet) ifoda semasi bilan metaforik ko'chma ma'no hosil qilgan. Yuzaki olib qaraganda, har ikkala leksik qurshovda ham *iymoq* leksemasi ijobiy konnotatsiyali

¹⁶ Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 61.

ko'chma ma'no hosil qilganday ko'rinadi. Biroq birinchi leksik qurshovda G'.G'ulom *iymoq* leksemasidan salbiy pragmatik maqsadni yuzaga chiqarishda ustalik bilan foydalangan. Kitobxon hikoya boshidan Sulaymonovni o'z ishiga mas'ul, laganbardorlikni xush ko'rmaydigan, vijdonli shaxs sifatida baholaydi, chunki bunga Sulaymonovning individuallashtirilgan nutqi turtki bo'ladi. Chetdan olib qaraganda, yozuvchi ham xuddi shuni ta'kidlayotganga o'xshaydi, biroq uning asl maqsadi boshqa: Sulaymonov nutqini individuallashtirib, yengil satirik kulgi uyg'otish, kitobxon ko'z o'ngida ijobiy parda ortidagi personajning asl qiyofasini ko'rsatish. Yozuvchi ideolektida sodir bo'lgan ana shu ichki maqsad *iymoq* leksemasining ichki mazmuniga katta mahorat bilan singdirilgan. YA'ni Kamolxonovning laganbardorlik bilan aytgan mubolag'ali gapidan so'ng, «Sulaymonov juda iyib ketdi». Mana shu o'rinda Sulaymonovning xushomadgo'ylikni, laganbardorlikni xush ko'rishi uning asl basharasini ochib tashlaydi, kitobxon va personaj o'rtasidagi sirli parda yo'qolib, munofiq shaxsning ma'naviy tuban qiyofasi namoyon bo'ladi. Yozuvchi Kamolxonov va Sulaymonov xarakteridagi bu kabi illatlarni bir butun holga keltirib, jamiyatdagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik va buning oqibatidan kelib chiqadigan boshboshdoqlikka ishora beradi, hikoya davomida ana shu illatning ochilib borishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi leksik qurshovda Oybek *iymoq* leksemasini ijobiy pragmatik maqsadda qo'llab, hikoya personaji Lutfiniso onaning sevinchini, hursandchiligini ifoda etadi. Lekin yozuvchi leksema tarkibiga hech qanday implitsit mazmun yashirmaydi. Balki o'zbek ayoliga xos qo'li ochiqlik, saxovatlilik xislatlarini ochiq-oydin tasvirlaydi.

O'zaro muqoyasa qilingan leksik qurshovlardan ko'rinib turibdiki, Oybek *iymoq* leksemasining ijobiy pragmatik ma'nosidan yo'l-yo'lakay ta'sirchan vosita sifatida foydalangan. Albatta, bu o'quvchini ajablantirmaydi, miya tomirlarini chertmaydi. Leksema salbiy konnotatsiyali okkazional metaforik ko'chma ma'no hosil qilib, asar ta'sirchanligini, badiiy-estetik qimmatini oshiradi.

Kengaygan metaforalardan uslubiy vosita sifatida foydalanish G'.G'ulomning nasriy asarlarida yozuvchi uslubiga xos bo'lgan ko'tarinkilik, ehtiroslilik, hayotbaxsh patetika uning kengaygan metaforalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

*Ertasiga qiz bilan va'da o'rnida uchrashdik, yana shahar aylana boshladik. Andak-andak gaplarimizga **muhabbat shakarlarini** sepa boshladik. («Bo'ydoq»)* ... *lekin mendagi u jinsiy umid to'lqinlari, **yigitlik o'chog'idan** chiqqan tilak uchqunlari, afsuski, raqiblar hadigidan beparvo ekan. («Saodat»)* Albatta, bunday estetik ruh bilan sug'orilgan jumlar badiiy asar matnida obrazlilikni, ta'sirchanlikni yuqori pardalarda namoyish etib, kitobxonning badiiy go'zallikka, nafosatga bo'lgan tashnaligini qondira oladi. Biroq ularning badiiy asar g'oyaviyligiga qay darajada yo'naltirilganligi kitobxonning xalqchillikka tashna qalbini qay darajada qondirishi kishini mulohazaga tortadi.

G'.G'ulom metaforalardan foydalanish uslubi asar badiiyatini tashkil etuvchi g'oyaviylikka yo'naltirilganligi bilan xarakterlidir.

1.2. Yozuvchining metonimiyadan foydalanish mahorati

Metonimiya ko'chma ma'no hosil bo'lishining bir ko'rinishidir. U ham metafora singari qadimdan faylasuf va tilshunoslarning diqqatini o'ziga tortib kelgan, shu bois turli davrlarda uning tabiatiga qarashlar ham o'ziga xos xilma-xilliklarga ega¹⁷.

Jumladan, o'zbek tilshunosligida ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab metonimiya va uning tabiatiga qarashlar ko'pgina ilmiy risolalar, maqolalarda o'zining nazariy asoslarini topa boshladi.

Umuman, jahon va jumladan, o'zbek tilshunolarining metonimiya xususidagi qarashlari bir xil: obyektiv borliqdagi biror narsa yoki voqea-hodisa

¹⁷ Қаранг: Миртожиев М. Кўрсатилган асар. – Б. 52-55; Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия. – Самарқанд, 2001. – Б. 7-11.

nomi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik asosida boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi.

O'zbek tilshunosligida metonimiyalarning hosil bo'lish sabablari va yondosh hodisalardan farqi yirik monografik planda nutq hodisasi sifatida I.K.Shukurov tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, til hodisasi sifatida M.M.Mirtojiyev tomonidan rus tilshunosligiga asoslanib tadqiq etilgan. Tildagi barcha tasviriy vositalar singari metonimiyaning ham badiiy adabiyotda o'ziga xos o'rni bor. To'g'ri, u tilning boshqa tasviriy vositalari singari (sinekdoxa bundan mustasno) badiiy adabiyotda keng tarqalgan emas, lekin shunday bo'lsa-da, tilning estetik funksiyasini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Metonimiya badiiy asarda ijodkor g'oyasini, maqsadini yoritishda birmuncha aktual vazifa bajaradi.

G'.G'ulom hikoyalarida ot leksemalar doirasida hosil bo'lgan metonimiyalar salmoqli o'rinni egallaydi. Xususan:

a) o'rin-joy nomi uni egallab turgan shaxs hosila ma'nosini beradi:

– *Sizda har qancha uyat bo'lsa, o'z qilmishingizdan ortmaydi! O'z qilmishlaringizdan uyaling!*

Zalda kulgi...

Berilgan kontekstda *zal* o'rin-joy oti 'shaxs' hosila semasi bilan metonimik ko'chma ma'no hosil qilgan.

b) inson organizmi nomi unda sodir bo'luvchi faoliyat, jarayon nomi o'rnida qo'llanadi. Bunda hosila ma'no abstrakt (mavhum) ot bilan anglashiladi:

– *Ko'ngli yarimta bo'lsa, **miyasi** ham yarimtami?*

Berilgan kontekstda *miya* leksemasi 'aql', 'ong' hosila semalari bilan yorqinlashib, nutqiy metonimik ko'chma ma'no hosil qilgan.

G'.G'ulom ko'plab xarakterlar yaratgan. Yozuvchi hikoyaning hech bir o'rnida qahramonning olijanoblighi, vatanparvarligi, jonkuyarligi haqida ochiq-oydin gapirmaydi. Lekin uning nutqini shu qadar jonli, tabiiy yaratadiki, beixtiyor o'quvchida personaj timsolida yuqoridagi olijanob xislatlarni ko'radi. Jumladan, matn parchasida keltirilgan *miya* leksemasi jonli so'zlashuv tilida metonimik ko'chma ma'noda keng qo'llanadi. Bunday paytda salbiy pragmatik maqsad

birinchi o‘ringa chiqadi, ya’ni kesatiq, koyish, tanbeh berish. Yozuvchi ana shu holatni qahramon nutqida real tasvirlab, kitobxonning xalqchillikka tashna bo‘lgan ehtiyojlarini qondirgan;

1.3. Yozuvchining sinekdoxadan foydalanish mahorati

Sinekdoxa hodisasi jahon, jumladan, o‘zbek tilshunosligida o‘zaro ichki aloqadorlik asosida butun-qism, birlik-ko‘plik munosabatidagi ko‘chim turi sifatida o‘zining nazariy asoslarini ma’lum darajada topgan. Biroq uni ko‘chim turlari orasida tasniflashda turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, XIX asrning boshi va ikkinchi yarmida so‘zning ko‘chma ma’nolari borasida o‘z tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lgan nemis uslubshunoslari uni ko‘chim turlari orasida tasniflashda (sinekdoxani metonimiyaning tarkibiga kiritishda) taxminiy xulosaga keladilar.

O‘zbek tilshunosligida sinekdoxani metafora tarkibida izohlasalar¹⁸, ayrimlar metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida qayd etadilar¹⁹. Tilshunos olim M.Mirtojiyev esa metonimiya va sinekdoxa bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan alohida hodisa deb ko‘rsatadi, ya’ni «metonimiya va sinekdoxada ma’nolar ifodalaydigan nomdoshlovchi va nomdoshlanuvchi o‘rtasidagi munosabatlar bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi. Shuning uchun ham ular ko‘chma ma’no hosil bo‘lishining bir-biriga bo‘ysunmaydigan alohida hodisalaridir»²⁰ deb ta’kidlaydi.

Bizningcha, metonimiya va sinekdoxa hodisalari o‘zaro integral va differensial belgilarga ega. Metonimiya va sinekdoxa asosida nom ko‘chishi o‘zaro bog‘liqlikka asoslanishi bilan umumiylik hosil qiladi. Metonimiyada ikki obyekt o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik asosida ma’no ko‘chsa, sinekdoxada bir obyektning o‘zaro aloqador bo‘lgan butun va qism, birlik va ko‘plik asosida ma’no ko‘chishi bilan bu ikki hodisa bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun biz metonimiya va

¹⁸ Ўзбек тили стилистикаси / Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 237.

¹⁹ Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1963. – Б. 63; Қиличев Э. Кўрсатилган асар. – Б. 81-82;

²⁰ Миртожиев М. Кўрсатилган асар. – Б. 57.

sinekdoxani o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan ko‘chimning alohida ikki turi deb talqin qildik.

O‘zbek tilshunosligida sinekdoxani tasniflashda bir-biridan farq qiluvchi qarashlar mavjud. Jumladan, M.Mirtojiyev sinekdoxani uch prinsip asosida oltita guruhga bo‘lib talqin etadi²¹. R.Qo‘ng‘urov sinekdoxalarni quyidagi turlarga bo‘ladi: a) butun o‘rnida qism; b) qism o‘rnida butun; v) ko‘plik son o‘rnida birlik; g) jins o‘rnida tur; d) kishi o‘rnida unga tegishli narsa²².

Sinekdoxalar badiiy matnda qo‘llanganda murakkab gap tuzilishlarini, ortiqcha chiyralgan so‘z va ifodalarning oldini oladi, matn jumllariga soddalik, affektivlik baxsh etadi. G‘.G‘ulom sinekdoxaning ana shu imkoniyatlaridan hikoyalari tilini bezashda, asar badiiyatini ta‘minlashda unumli foydalangan ijodkor. Adib hikoyalarida sinekdoxaning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

1. Butun o‘rnida qism. Sinekdoxalarning bu ko‘rinishi hosila ma’no yuzaga chiqishi bo‘yicha yana bir necha semantik guruhga ajratilishi mumkin:

a) `shaxs`, `inson` hosila semali sinekdoxalar: *Hozirgacha yonmagan yurak bo‘lsa mana shuni eslatishing bilan alanga oladi.*

Berilgan gapda *yurak* leksemasi orqali `shaxs` semali hosila ma’no yuzaga chiqqan hamda nutqiy sinekdoxa hosil bo‘lgan. Bunda *yurak* leksemasi ikkilamchi nominatsiya jarayonini boshqargan. Yozuvchi hikoyada *yurak* leksemasi orqali sinekdoxa usulidan foydalanar ekan, uning ma’lum bir g‘oyaviy pozitsiyada turgani, aytmoqchi bo‘lgan salmoqli gapining personaj nutqida namoyon bo‘lishi *yurak* leksemasiga implitsit tarzda mahorat bilan singdirilgan. Yozuvchi urush musibatlaridan tushkun holga tushib qolgan insonlarni *yonmagan yurak* birikmasi orqali obrazli ifodalab, hikoya badiiyatiga kuchli tasviriylik, ekspressivlik olib kirgan.

G‘.G‘ulomning nasriy asarlaridan ham misol keltirish mumkin: «...*Qizarma! Bizdan kelgusi uchun sog‘lom tuyoqlar bo‘ladi. Biz xursand oilaning ongli otionalari bo‘lamiz*», – deb yozadi *Po‘latjon*. (G‘.G‘ulom. «*Puch umidlar*»)

²¹ Бу ҳақда қаранг: Миртожиев М. Ўзбек тилида синекдоха ва унинг турлари // Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар / ФА ТАИ тўплами. 6-қт. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 119-126.

²² Қўнғуров Р. Кўрсатилган асар. – Б. 23-27.

Gʻ.Gʻulom «Puch umidlar» hikoyasida `farzand` hosila maʼnosini beruvchi tuyoqlar leksemasidan nutqiy sinekdoxa hosil qilgan. Bunda tuyoqlar leksemasi epistolyar birlikka koʻtarinki ruh bagʻishlash maqsadida olib kirilgan. Zero, epistolyar birliklar koʻtarinki uslubda bayon qilinishi bilan xarakterlanadi. Gʻ.Gʻulomning sinekdoxadan foydalanish mahorati zamondosh yozuvchilar uslubidan oʻzining betakror mazmunga egaligi, asarning gʻoyaviy maqsadiga yoʻnaltirilganligi hamda yozuvchi ideolektida sodir boʻlgan illokutiv maqsadning unda implitsit ifodalanishi, qolaversa, badiiy matnda obrazli ekspressivlik mohirona ifoda etilishi bilan ajralib turadi

1.3. Gʻafur Gʻulom hikoyalarida epitetlarning oʻrni

Soʻnggi yillarda badiiy asar tili va unda qoʻllangan badiiy tasvir vositalarini oʻrganishga qiziqish kuchaymoqda. Malumki, epitet badiiy nutqning eng muhim tasviriy-ifodaviy vositalaridan biri hisoblanadi. Lekin hali-hanuz epitetlarning nazariy hamda amaliy jihatlarini yetarli darajada tadqiq etilgani yoʻq. Toʻgʻri, maqola koʻrinishidagi kichik tadqiqotlarda, badiiy matn tahliliga bagʻishlangan risolalarda, ayrim ilmiy tadqiqot ishlarida²³ qimmatli fikrlar aytilgan, biroq bu masalaning mohiyati toʻla-toʻkis ochildi degani emas. Bu tadqiqotlar epitetlar borasida alohida izlanishlar olib borish uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Chunki badiiy asar tilida qoʻllangan epitetlarning lisoniy hamda lingvopoetik tahlili ustida qator ishlarni amalga oshirish mumkin. Jumladan, biz tahlil obyekti qilib olayotgan Gʻ.Gʻulom hikoyalari tilida qoʻllangan epitetlarning pragmalingsvistik tahlili lingvopoetik tadqiqotimiz uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Biz tadqiqot doirasidan kelib chiqib, ularning badiiy-estetik xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Chunki epitetlarning lisoniy mohiyati alohida tadqiqot obyekti boʻlishi mumkin.

²³ Каримов С. Кўрсатилган докторлик диссертацияси. – Б. 195-198; Нормуродов Р. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 73-79; Мухаммаджонова Г. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 93-98;

«Epitet shaxs, narsa yoki voqea-hodisalarning oddiy aniqlovchisi emas, balki ularning poetik obraz darajasidagi mohiyatini, qimmatini ado etuvchi vazifasini belgilovchi badiiy aniqlovchidir»²⁴.

O'zbek tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan ayrim ishlarda epitetlar ko'chim turlaridan biri sifatida e'tirof etiladi yoyinki ko'chim turlari qatorida sanab o'tiladi. Folklorshunos I.Boltayeva rus tilshunosi A.A.Potebnyaning epitet haqidagi nazariy qarashlariga tayanib, epitetlar ko'chim turi emas, deya e'tirof etadi. A.A.Potebnya ko'chimlarga nisbatan epitetni kengroq, umumiyroq hodisa deb tushunadi va epitetlar ko'chimlar orqali ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Shu o'rinda I.Boltayeva epitetlarning ko'chimli va ko'chimsiz qo'llanilishini nazarda tutib, «epitet badiiy ifoda yoki tasvir usuli bo'lsa, ko'chimlar badiiy tasvir va ifoda vositasidir»²⁵ deb epitet va ko'chimlar orasidagi tafovutni farqlashga harakat qiladi.

Biz ham tadqiqotchining fikrini ma'qullagan holda epitetlarga semantik-stilistik vosita sifatida yondashdik. Darhaqiqat, epitet uchun so'zning o'z yoki ko'chma ma'nodaligi muhim emas, balki narsa yoki hodisadagi alohida olingan belgining kuchaytirilishida, ta'kidlanishida va uning estetik maqomida deb tushunish lozim. Yozuvchi o'z g'oyaviy pozitsiyasi, estetik didi va poetik maqsadlariga ko'ra tasviriy obyektни baholayotganda unga xos bo'lgan obyektiv belgilarni bo'rttirib tasvirlashi mumkin. Bunday tasvir ko'pincha sifatlash orqali amalga oshadi.

Epitetlarning qo'llanilishiga ko'ra an'anaviy (doimiy) va individual turlari farqlanadi. An'anviy epitetlar tilda takror qo'llanilishi bois til hodisasiga aylangan, obrazlilikdan, emotsional-ekspressivlikdan holi bo'lgan, ma'no xususiyatiga ko'ra aniqlovchiga yaqin turadigan tasviriy vositadir²⁶. Lekin shunday bo'lsa-da, badiiy asar tilida badiiylikni ta'minlovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bunga G'.G'ulom hikoyalarida qo'llangan *eski arra, olchin to'qmoq, kir sholcha, oldi ochiq ayvon, uvin-to'da ko'rpa-yostiqlik, mukka kampir, chillashirshapaloqlik barg, jin*

²⁴ Болтаева И. Ўзбек халқ дostonларида эпитет табиати: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 10.

²⁵ Болтаева И. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 19.

²⁶ Мукаррамов М. Кўрсатилган асар, 38-бет.

tekkan yuz, olachalpoq soya, obod bog' popuk novda, oy yuzli, shirin so'zli, qora qosh, qora ko'z yigit, soxta tabassum, mayin ovoz, xunuk gap, xunuk ish, xunuk xabar, qop-qora qon, og'ir xasta,, cho'loq supurgi, qora ko'ngil, quruq ilm, harom ish kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Individual qo'llanishdagi epitelar yozuvchi uslubi bilan bog'liq bo'lib, ularning o'ziga xos lisoniy layoqatini nutq kechimida namoyon qiladi. Individual epitelar ma'lum bir ijodkor tomonidan ilg'ab olingan va badiiy asarda alohida ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoj tufayli yuzaga chiqadi. Demak, individual epitelarda yozuvchining ham subyektiv, ham emotsional munosabatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu munosabat bilan epitelar nutq kechimida pragmatik axborot tashiydi.

Ma'lumki, adabiy tilning tom ma'nodagi ijodkori xalq hisoblanganligi uchun umumxalq tilining rang-barang turlarini, ayniqsa, uning umummilliy o'zagi tarixini hisobga olmay turib, adabiy tilning o'tmishini tushunish, uning zamonaviy holati haqida biror bir mulog'aza yuritish, hukm chiqarish amri mahol.²⁷

Epitet – predmetning sifatini tasvirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so'z, tropning bir turi hisoblanadi.

Garchi epitet badiiy asarlar matnida izohlovchi vazifasida ko'rinsa-da, biroq predmetning sifatini me'yoridan ortiq tasvirlash uchun xizmat qiladi.

G'afur G'ulom hikoyalarida shunday epitelar o'xshatishdan keyin ko'p qo'llangan badiiy tasvirning leksik vositasi hisoblanadi. Epitet asarning badiiy salohiyatini oshiradi, matnning jozibadorligi ortadi. Quyida ana shunday epitelarning bir nechtasini tahlil qilamiz. Masalan, "Uy egasi o'rtağa bir kir dasturxon yozdi." ("Hasan Kayfiy" 230-bet.)

Berilgan gapda sifatlash *kir* so'zidir. Yozuvchi tomonidan dasturxonning tashqi ko'rinishiga nisbatan berilgan baho. **Kir** 1. Badan, kiyim va boshqa kabilarga chang-tuzon o'tirishidan hosil bo'lgan ifloslik. 2. Yuviladigan yoki yuvilgan kiyim, sochiq, dasturxon va shu kabi buyumlar. (O'TIL, 1-tom 387-b.)

²⁷ Дадабоев Х. Гафур Гулом ҳикояларида бадий тасвирнинг лексик воситалари//Гафур Гулом ва давр.– Тошкент, 2003.

Izohli lugʻatda berilgan har ikki taʼrifdan birinchisi kir soʻzining maʼnosiga yaqin. Har kuni ovqat yeyilgach, turli dogʻlarning dasturxonga oʻtirib qolishidan kir hosil boʻladi.

“Buvasidan qolgan bir **eski arra** bilan **olchin toʻqmoq** boʻlguvchi edi.” (“Hasan Kayfiy” 234-bet.) Berilgan ushbu gapda ikkita epitet mavjud: *eski arra*, *olchin toʻqmoq*. Eski arra, koʻrinib turganidek arraning anchadan buyon ishlatilayotganligini, eskirib ketganligini bildiradi.

Olchin – 1.Oʻzbek xalqining etnik sostaviga kirgan urugʻlardan birining nomi, shu urugʻga mansub kishilar. 2. **Olchin toʻqmoq** – dastasi uzun katta yogʻoch toʻqmoq. (OʻTIL, 1-tom 436-b.) Keltirilgan gaplarda izohli lugʻatda berilgan taʼriflarning ikkinchisi nazarda tutilgan.

“Oqshomlari buvim boshliq hammamiz **oldi ochiq ayvonda uvin-toʻda** koʻrpa-yostiqlarga oʻralib, bittagina Oʻratepaning **kir sholchasi** ustida uxlaymiz.” (“Mening oʻgʻrigina bolam”, 200-bet) Ushbu gapda *oldi ochiq ayvon*, *uvin-toʻda koʻrpa-yostiq*, *kir sholcha* birikmalari epitet hisoblanadi. Bu yerda - *oldi ochiq ayvon* – uch tomoni berk boʻlgan yozgi oʻtirish, dam olish joyi; *uvin-toʻda koʻrpa-yostiq* – juda eskirib ketgan, yirtiq-yamoqli, toʻkilib ketgan maʼnosini beradi; *kir sholcha* – sholchaning iflosligini anglatib turgan *kir* soʻzi gapda epitet shaklini hosil qilgan.

“Buvasidan qolgan bir **eski arra** bilan **olchin toʻqmoq** boʻlguvchi edi.” (“Hasan Kayfiy” 234-bet.) Berilgan ushbu gapda ikkita epitet mavjud: *eski arra*, *olchin toʻqmoq*. Eski arra, koʻrinib turganidek arraning anchadan buyon ishlatilayotganligini, eskirib ketganligini bildiradi.

Olchin – 1.Oʻzbek xalqining etnik sostaviga kirgan urugʻlardan birining nomi, shu urugʻga mansub kishilar. 2. **Olchin toʻqmoq** – dastasi uzun katta yogʻoch toʻqmoq. (OʻTIL, 1-tom 436-b.) Keltirilgan gaplarda izohli lugʻatda berilgan taʼriflarning ikkinchisi nazarda tutilgan.

“Oqshomlari buvim boshliq hammamiz **oldi ochiq ayvonda uvin-toʻda** koʻrpa-yostiqlarga oʻralib, bittagina Oʻratepaning **kir sholchasi** ustida uxlaymiz.” (“Mening oʻgʻrigina bolam”, 200-bet) Ushbu gapda *oldi ochiq ayvon*,

*uvin-to 'da ko 'rpa-yosti*q, *kir sholcha* birikmalari epitet hisoblanadi. Bu yerda - *oldi ochiq ayvon* – uch tomoni berk bo‘lgan yozgi o‘tirish, dam olish joyi; *uvin-to 'da ko 'rpa-yosti*q – juda eskirib ketgan, yirtiq-yamoqli, to‘kilib ketgan ma’nosini beradi; *kir sholcha* – sholchaning iflosligini anglatib turgan *kir* so‘zi gapda epitet shaklini hosil qilgan.

“*Eshon dokani tortib olishi bilan, hayhot ne ko 'zi bilan ko 'rsinki, Roqiya qiz o 'rnida iymalangan jiq teri, saksonlardan oshib, og 'zida tish bolasi qolmagan mukka kampir, bir vaqtlar o 'zi dam solgan Dadaqo 'zining onasi chillashir Sarvar amma...*”(“Elatiyada bir ov”, 69-bet)

Yozuvchi asarda *iymalangan jiq teri, mukka kampir, chillashir Sarvar amma* kabi sifatlashli birikmalarni keltirib o‘tgan. Berilgan ushbu epitetda - *iymalangan jiq teri* – qari odamlarning terisi ko‘plab ajinlar bilan qoplanganligiga ishora. Yozuvchi keltirilgan gapda terining ana shunday sifatga egaligini ko‘rsatib berayapti. Keyingi epitetda *mukka kampir* – sifatlash kampirning jussasiga nisbatan qo‘llagan. *Muk tushmoq* – oyoqlarini yiqqan holda yuz tuban yotmoq degan ma’noni bildirsa, *mukka* so‘zi egilgan ma’nosini bildiradi. *Chillashir* – inson organizmida nikotin kislotasi yetishmasligi, teri va ichak yo‘llarining zararlanishidan iborat kasallik. *Chillashir Sarvar amma* – bu qahramonga nisbatan kasal(ozg‘in), qotma ma’nosida qo‘llangan.

Demak, epitetlar badiiy uslubni rivojlantiruvchi badiiy tasvirning leksik vositalari hisoblanadi. Boshqa uslublardan farqli o‘laroq badiiy uslub o‘zidagi takrorlanmas epitetlari bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda epitetlar badiiy matnga badiiy bo‘yoq berishda, uning ta’sirchanligi, obrazlilikini oshirishda eng muhim tasviriy usullardan biri hisoblanadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. O'zbek tilshunosligida ko'chimlar leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri bo'lib, so'zning uzual yoki okkazonal ma'no doirasida hosil qilinadi. Ko'chimlar badiiy matn doirasida talqin qilinganda ko'proq ularning mohiyatiga subyektivlik nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq.
2. Metaforalar ko'chim turlari orasida juda keng tarqalgan bo'lib, ular o'z xususiyatiga ko'ra doimiy va individual metaforalarga bo'linadi. G'.G'ulom individual metaforalar yaratishda ot, sifat, fe'l turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangan.
3. Yozuvchi hikoyalarida qo'llangan so'z birikmasi va gap shaklidagi kengaygan metaforalar oz miqdorni tashkil etadi. Lekin shunday bo'lsa-da, ular ham badiiy g'oyaviylik va mahorat bilan chambarchas holda yuzaga kelib, hikoyalarning estetik, badiiy-ifodaviy qimmatini ta'minlagan.
4. Tildagi barcha tasviriy vositalar singari metonimiyaning ham badiiy adabiyotda o'ziga xos o'rni bor. Metonimiya tilning estetik funksiyasini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Metonimiya badiiy asarda ijodkor g'oyasini, maqsadini yoritishda ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi.
5. G'.G'ulom metonimik ko'chma ma'nolar orqali xalq tilining go'zalligini, boyligini, serzavqligini, shuningdek, hayotning haqqoniy tasvirini bera olgan. Chunki adib hikoyalarida qo'llangan metonimiyalarning ko'pchiligi xalqning jonli so'zlashuv tilidan olinganligi bilan xarakterlanadi.
6. Yozuvchining sinekdoxadan foydalanish mahorati tahsinga loyiq. Adib sinekdoxalardan obrazli, ta'sirchan ifodalar yaratishda hamda badiiy matnda jonli so'zlashuv tiliga xos tabiiylikni, soddalikni, qolaversa, hikoyalari tilining xalqchilligini ta'minlashda individual foydalanib, o'zining betakror mahoratini namoyon eta olgan.
7. Eпитetlar badiiy uslubni rivojlantiruvchi badiiy tasvirning leksik vositalari hisoblanadi. Boshqa uslublardan farqli o'laroq badiiy uslub o'zidagi takrorlanmas

epitellari bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda epitetlar badiiy matnga badiiy bo‘yoq berishda, uning ta’sirchanligi, obrazlilikini oshirishda eng muhim tasviriy usullardan biri hisoblanadi.

II BOB. G‘AFUR G‘ULOM ASARLARIDA CHEGARALANGAN LEKSIKANING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

2.1. G‘. G‘ulom asarlarida arxaik so‘zlarning uslubiy xususiyatlari

Eskirib iste’moldan chiqqan yoki kam ishlatiladigan, o‘z ekvivalentlari (sinonimlariga) ega bo‘lgan so‘zlar arxaizmlardir.

Arxaizmlar orqali ifodalangan predmetlar bugungi hayotda ham mavjud bo‘ladi, biroq ular avvalgi nomlar bilan atalmaydi, balki boshqa ekvivalentlari bilan ifodalanadi.

Arxaizmlar hozirgi kunda mavjud bo‘lgan tushuncha (so‘z)ning eskirgan nomidir. Ular ham tarixiy so‘zlar singari badiiy matnga voqelikni real tasvir etuvchi o‘tmish koloritini olib kiradi. Jumladan, G‘.G‘ulom hikoyalarida keltirilgan *sartiya*, *hakim*, *tabib*, *qadoq*, *tilmoch* kabi arxaik so‘zlar davr ruhini haqqoniy tasvirlashda, badiiy matnga o‘tmish koloritini berishda aktual vazifa bajargan. Ular hozirgi kunda *o‘zbek*, *shifokor*, *to‘rt yuz gramm*, *tarjimon* kabi o‘z ekvivalentiga ega.

Arxaizmlar badiiy nutqqa o‘ziga xos stilistik bo‘yoqlarni olib kirishi bilan tarixiy so‘zlarga nisbatan keng qamrovlidir. «Arxaik so‘zlarda `eskilik` konnotativ ifoda semasi bo‘rtib ifodalangan bo‘ladi, bu hol ularning badiiy matnda tasviriylilik, ifodalilik vositasi sifatida qo‘llanishi uchun jiddiy imkoniyatdir»²⁸. Arxaik so‘zlar zamonaviy ekvivalentiga qaraganda badiiy matnga ma‘noni kuchli ifodalash²⁹, ifodaviylilik, ta’sirchanlik, ko‘tarinkilik kabi estetik ruh bag‘ishlaydi. Ularning qanday uslubiy maqsadda istifoda etilganligi, albatta, ular qatnashgan leksik qurshovda namoyon bo‘ladi³⁰. Mas., *minba’d yolg‘on gapirmaydi*.

Ma’lumki, arxaik so‘zlar badiiy matn doirasida butun bir gapga nazokatli, “yumshoq” ruh bag‘ishlashda uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin³¹. Jumladan, yuqorida keltirilgan matn parchasida *minba’d* arxaik so‘z bo‘lib, hozirgi adabiy tilda uning *bundan keyin*, *hech*, *sira*, *aslo* kabi ekvivalentlari mavjud. Biroq

²⁸ Йўлдошев М.М. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 55-56.

²⁹ Қаранг: Йўлдошев М.М. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 57.

³⁰ Қаранг: Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 18.

³¹ Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 19.

yozuvchi badiiy matnga bu soʻzlardan birini emas, aynan *minbaʼd* leksemasini hikoya personaji Sobiraxon nutqi orqali olib kirgan. Chunki yozuvchi *minbaʼd* soʻzining `yalinchoqlik`, `xayrixohlik` kabi ifoda semalaridan keskin vaziyatga “yumshoq” ruh bagʻishlashda, jumlaning taʼsir kuchini orttirishda oʻta sinchkovlik bilan foydalangan.

Yozuvchi nutqida qoʻllangan *alhol* arxaik soʻz boʻlib, hozirgi adabiy tilda *hozirda, shu paytda, ayni vaqtda* kabi zamonaviy maʼnodoshlariga ega. Yozuvchi bu soʻzlarning arxaik shaklini hikoyachi personaj tilidan keltirib, uning oʻz hayotidan mamnunligini, undagi qoniqish hissini koʻtarinki bir ruh bilan ifoda etgan. Bunda hozirgi kun nuqtai nazaridan arxaik soʻz sanaluvchi, koʻtarinki uslubga xos, matnda ot-kesim vazifasida qoʻllangan barqaror leksema ham ifodaning taʼsir kuchini orttirishga xizmat qilgan. Demak, «arxaizmlar badiiy asar tiliga tantanavor, koʻtarinki ruh berishi bilan ham oʻziga xos estetik qimmat kasb etadi»³².

«Arxaik soʻzlar nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va hajv ottenkasini berish uchun ham ishlatiladi»³³.

*Uning gaplariga quloq solib, **raftorini** kuzatib turgan hamshira:*

– Kasalni toliqtirib qoʻyasiz, bas! – dedi va eshikni koʻrsatdi. («Netay»)

Berilgan leksik qurshovda *xatti-harakat, yurish-turish* leksemalarining arxaik shakli – *raftor* soʻzi bilan yozuvchi badiiy matnga kamsitish, mazax, masxara, kinoya, piching, hajv ruhini olib kirgan. Bunda, albatta, arxaik soʻzning yuqoridagi maʼno qirralari leksik qurshovda, yaʼni Faxriddinning Mehri bilan qilgan savol-javobida hamda hamshiraning zaharxanda nutqida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Gʻafur Gʻulom poeziyasida ishlatilgan arxaizmlarni quyidagi gruppalariga ajratdik.

1. Leksik arxaizmlar.
2. Grammatik arxaizmlar.

³² Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 19.

³³ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р. Кўрсатилган асар. – Б. 51.

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimlari mavjud bo'lgan arxaizmlar leksik arxaizm hisoblanadi. Shoir she'rlarida uchraydigan leksik arxaizmlarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: esh, oqcha, ulus, qusur, dudoq, udum, firqa, tilmoch, dorilfunun kabilar. Bu so'zlarning ba'zilari hozir ham tilimizda ishlatilsada, ular o'rniga ko'proq hamsuhbat, xalq, pul, kamchilik, pechat, lab, partiya, tarjimon, universitet kabi sinonimlari ishlatiladi.

Arxaizmlar tilda saqlanib turadi, biroq ular passiv holatda bo'ladi. Ular poetik asarlarda uslubga ko'tarinkilik berish hamda kesatiq ma'nolaridagina qo'llanadi. Bunday holatni G'. G'ulom poeziyasida ko'plab uchratish mumkin. Shoirning «Kuzatish» she'ridan olingan quyidagi parchada eski so'z stilistik maqsadda ishlatilgan. Bobolar udumin tutib nazarda, Kurashda toleing bo'lur senga yor.

Ba'zan eski so'zlar bilan chet so'zlarning farqiga borilmaydi. Ko'pincha hozirgi zamon o'zbek tilida ham, eski o'zbek tilida ishlatilmaydigan so'zlarga duch kelinadi. Bunday so'zlar kitobxon uchun notanish bo'ladi. Bular o'zbek tili lug'atidan emas, balki boshqa tillar lug'atidan olib ishlatiladi. Shunday so'zlar shoir she'rlarida uchraydi. Masalan: «Qor» she'rida shunday bayt bor. To'y oqshomi inju taqqan yetim qiz; Majnun tolning marjonida bulduruq.

Bu parchada ishlatilgan «to'y oqshomi» so'zi G'. G'ulomning tanlangan asarlarida «Zufof oqshomi» deb berilgan. «Zufof» so'zi asli arabcha bo'lib, zifof (un)-nikoh to'yi ma'nosida ishlatilgan¹. Bobolaring boshiga shox taqib yurib, Bilmasdan tuz nima, o't nima, lungi... Va Nibelungi².

b) Grammatik arxaizmlar.

Vaqtning o'tishi bilan so'z va iboralarda bo'lganidek, ba'zi grammatik formalar, affikslar ham arxaiklashib iste'moldan chiqib keladi yoki kam ishlatiladigan bo'lib qoladi, ularning ayrimlari esa boshqa grammatik formalar bilan almashadi. O'zbek tilshunosligiga oid ba'zi bir ishlarda ayrim kelishik

¹. Ш. Раҳматуллаев, Архаизм ва историзм, САГУ, науч. труды. вык. 211. Языкономия. Т., 1973 йил.

². Нибелунги-немис эпосининг бош қаҳрамони.

qo'shimchalari, fe'ning zamon formalari, sifatdosh va harakat nomi yasovchi ayrim affikslarning hozirgi paytda arxaiklashgani haqida fikr yuritilgan⁴.

Grammatik arxaizmlar G'. G'ulom she'rlarida quyidagicha ishlatilgan:

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida -mish affiksli sifatdosh iste'moldan chiqqan bo'lsa-da, u G'. G'ulom she'rida uchraydi: Juda oddiy-har tuk paxta, chinin aytsam, Sevgi bilan ko'karmishdir, zavq bilan dam, Umidlar-la chechaklanmish va mehribon, Diqqatlar-da yaprog'iga yugurgan qon. Kimdir bunda- Gilamini qoqmishdir, Tegirmonda gard to'foni oqmishdir.

2. G'afur G'ulom poeziyasi tilida fe'ning kelasi zamon sifatdoshi yasovchi ayrim affikslarning ba'zi formalari hozirgi o'zbek adabiy tilidagi formalardan farq qiladi. Misollar: ... Olamni qilajak misoli kunduz. Yoki, ... Gitlar qudrat narbonin ko'kka qo'yolmas, Quduq chuquriga tushmagay quyosh.

Bundan tashqari, shoir she'rlarida -g'on (so'rag'on), -g'in (olg'in, borg'in), -g'ali (so'rog'ali), -g'usi (bo'lg'usi, kelg'usi), -g'on (qolodurg'on), -g'uvon (aytg'uvon), -gali (kelgali), -g'ay (bormag'ay) kabi grammatik arxaizmlardan ham foydalanilgan. -g'on, Bundagi mazmuncha asriy minublar, *Bilag'on* kuchlarga har dam muntazir. -gusi, -g'uvsi, Shaharlar tarixdan *uchgusi* edi; Hamisha muborak bo'lg'uvsi bizga...

-g'ay - G'alaba bayraming muborak bo'lg'ay; -g'il - Yasha omon bo'lg'il, dono komsomol.

«Arxaiklashgan grammatik formalarni o'rganish, tarixiy grammatikaga doir problemalarni yoritishda, badiiy asarlar tilidagi xarakterli xususiyatlarni to'g'ri tushunish va yozuvchining uslubini belgilashda muhim ahamiyatga ega»¹. Bu so'z va formalarning ba'zilar ilgari lug'at sostavining faol so'zlari hisoblangan bo'lsa ham, hozirgi kunda eskirgan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bunday so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida «O'z davrini yashab bo'lgani» (E. Qilichev), endi unga ehtiyoj yo'qligi, kam ishlatiladigan bo'lib qolgani sababli, ulardan voqea va

⁴ А. Н. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка, М.-Л., 1960. стр. 226-236. III. Шукуров. Истории развития глагольных форм узбекского языка. Т., 1966 стр. 125.

¹ Д. Н. Шмелов, Архаические формы в современном русском языке, М., 1960, стр. 6.

hodisalarga tarixiylik ottenkasini, tarixiy mazmun kasb ettirish maqsadida qoʻllanadi.

Xullas, Gʻ.Gʻulom hikoyalarida qoʻllangan tarixiy va arxaik soʻzlar yozuvchining badiiy niyatini yuzaga chiqarishda, tasviriylilik va xalqchillik birligidan kelib chiqadigan hikoyalari tilining badiiyatini taʼminlashda muhim lisoniy omil boʻlib xizmat qilgan.

2.2. Gʻ. Gʻulom asarlarida tarixiy soʻzlarning qoʻllanishi

Maʼlumki, organizmga oʻxshab tildagi soʻzlar ham doimiy taraqqiyotda, oʻsishda boʻladi. Tildagi bu oʻsish va oʻzgarish tez va uzil-kesil sodir boʻlmaydi. Fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishning rivojlanishi, madaniyat kabilarning taraqqiy etishi bilan yangi-yangi soʻzlar vujudga keladi va tilning lugʻat sostavini toʻldiradi. Vaqt oʻtishi turmushning oʻsishi natijasida oʻsha soʻzlar orqali ifodalangan narsa va tushuncha eskirib kam ishlatiladigan boʻlib qoladi, aktiv soʻzdan passiv soʻzga aylanadi.

Bu hol, shubhasiz turmushdagi siyosiy va iqtisodiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda yuz beradi. Eskiradigan soʻzlar bildiradigan narsa va hodisalar hozirgi hayotda bor boʻlgani sababli, tilda ularni ataydigan zamonaviy soʻzlar ham boʻladi. Ulus (xalq), lang (choʻloq), firqa (partiya), tilmoch (tarjimon), dorilfunun (Universitet), oʻmiz (koʻkrak) va boshqalar. Qavs ichida berilganlar ana shunday soʻzlar hisoblanadi.

Maʼlum boʻldiki, tilda soʻzlar turmushning, jamiyatning talabi bilan bogʻliq holda yashaydi. Shu talab turmush tushunchalarini ifodalovchi yangi soʻzlarning paydo boʻlishiga va yuqoridagi baʼzi soʻzlarning eskirib isteʼmolda kam qoʻllanishiga sabab boʻladi.

Gʻafur Gʻulom poeziyasida ham eskirgan soʻzlarga duch kelamiz. U bu leksikadan mohirona foydalangan soʻz sanʼatkoridir.

Shoir eskirgan soʻzlarni arxiv emas, arsenaldir, deydi. Badiiy adabiyotda arxaiklashgan leksikani qoʻllash, kitobxonga oʻtmish haqida toʻliq tushuncha hosil qilish uni real tushunish uchun koʻmaklashadi.

Shunday ekan, bu arsenaldan kerakli soʻzlarni topib, oʻz oʻrnida ishlatish har bir shoirning muqaddas burchi va sharaflari vazifasi hisoblanadi. Bu jihatdan Gʻafur Gʻulom boshqa shoirlarga oʻrnak boʻla oladi. Uning sheʼrlarida ishlatilgan eskirgan soʻzlar qanchalik qadimgi boʻlmasin, oʻz oʻrnida qoʻllanilgan va davr koloritini saqlashda muhim rol oʻynagan.

Gʻafur Gʻulom sheʼrlarida eskirgan soʻzlarning har ikkala turi ham uchraydi. Adib poeziyasida ishlatilgan arxaizm va istorizmlar, shubhasiz, shoirning dastlabki yillardagi ijodiga xos. Undan keyin yozilgan asarlarida, xususan sheʼrlarida eskirgan soʻzlarni kam ishlatishga harakat qilgan.

Til jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri bilan uzviy ravishda rivojlanib borar ekan, uning amaliy jihati tilning lugʻat tarkibida oʻz inʼikosini topadi. Jamiyatning muttasil ravishda rivojlanib borishi tilning leksik qatlamidagi ayrim soʻz va tushunchalarning isteʼmol doirasidan chiqib ketishiga turtki boʻladi, shu bilan bir qatorda, tilning lugʻat tarkibiga yangi soʻzlar kirib keladi.

Tilning hozirgi adabiy mavqei nuqtai nazaridan qoʻllanish faolligi birmuncha susaygan yoki umuman isteʼmol doirasidan chiqib ketgan leksik birliklar guruhi borki, ular eskirgan soʻzlar deb yuritiladi.

Eskirgan soʻzlar, ularning turlari, uslubiy qoʻllanilishiga doir hodisalar rus tilshunosligida N.M.Shanskiy, I.K.Sozanova, N.A.Gvozdev, A.I.Yefimov kabi olimlar tomonidan chuqur va atroflicha oʻrganilgan.

Oʻzbek tilshunosligida soʻzlarning eskirish sababi va qonuniyatlari Sh.Rahmatullayev, E.Qilichev, A.Shomaqsudov, Sh.Shoabdurahmonov, E.Begmatov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, H.Neʼmatov, R.Rasulovlar tomonidan keng va atroflicha yoritilgan³⁴ boʻlsa-da, alohida olingan yozuvchi

³⁴ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982; Шу муаллиф. Ўзбек тили практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. I-II қисм. – Тошкент, 1974; Шоабдурахмонов Ш ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий

asarlari tilida qoʻllangan eskirgan soʻzlarning uslubiy va badiiy-estetik xususiyatlari doirasida qilingan tadqiqotlar ozchilikni tashkil etadi³⁵. Soʻnggi yillarda bu borada sezilarli darajada tadqiqot ishlari amalga oshirildi, lekin bu masalaning toʻliq oʻrganilganligini bildirmaydi, albatta. Bu esa tadqiqotimizga qoʻyilgan masalaning muhim va dolzarbligini belgilaydi.

Soʻz sanʼatkorlari badiiy matnga badiiy-estetik ruh bagʻishlashda, asar badiiyatini taʼminlashda muhim mezonlardan biri sanalgan eskirgan soʻzlardan xalqchilikni taʼminlash, badiiy matnga oʻtmish koloritini berish, qolaversa, emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqarishda uslubiy vosita sifatida foydalanadilar.

Tarixiy soʻzlar badiiy matnda tarixiy davrni haqqoniy tasvirlash zaruriyatidan kelib chiqib qoʻllanilsa, arxaik soʻzlar uslubiy vosita sifatida badiiy matnga oʻtmish koloritini berish bilan birga, badiiylikni taʼminlashda asarga koʻtarinki, tantanavor ruh bagʻishlab, ifoda-taʼsirchanlikni yuzaga chiqaruvchi estetik vazifa bajarishi bilan xarakterlanadi³⁶.

Biror badiiy matn doirasida, aytaylik, alohida olingan ijodkor asarlarining tilini oʻrganishda tarixiy qatlamga oid soʻzlar tadqiq qilinar ekan, albatta, asar yozilgan davrdayoq eskirgan soʻzlar guruhi tahlil obyektiga tortiladi. Jumladan, biz tadqiqot obyekti qilib olgan Gʻ.Gʻulom qissalari tilini oʻrganishda mazkur jihatni eskirgan soʻzlarning yozuvchi ideolektiga xos gʻoyaviy maqsadlarni yuzaga chiqarish va ulardan foydalanishdagi mahoratini aniqlashda chegara qilib belgiladik.

Istorizmlar oʻtmishga oid, hozirgi kunda ishlatilmaydigan (yoʻq) narsa va hodisalarni bildiruvchi soʻzlardir. Maʼlum davrlarda, ayrim predmet va hodisalar jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yoʻq boʻlishi, turmushda, kundalik hayotda oʻz qimmatini yoʻqotish, isteʼmoldan chiqishi, oʻtmish hodisasiga

тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985; Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари – систем лексикология ва тарихийлик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

³⁵ Қиличев Э. Архаизмы и историзмы в прозе Садриддина Айны: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1969; Бобоева С. Хамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989; Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2000; Боймиряева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2004.

³⁶ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 17-19.

aylanishi mumkin. Ular passiv lugʻat sostavida saqlanadi, maʼlum bir tushunchaning atamasi hisoblanadi. Bunday soʻzlardan yoʻq boʻlib ketgan narsalar, tushunchalar haqida gap borganda foydalaniladi. Chunki hozirgi oʻzbek adabiy tilida bular oʻzining ekvivalentlariga (sinonimlariga) ega emas. Maʼlum boʻladiki, oʻtmish voqeysini atash zaruriyati tufayli ishlatiladigan eski lugʻat birligi tarixiy soʻz hisoblanadi. Har bir xalqning tili shu xalqning tarixini, ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi vositadir. Istorizmlar bildiradigan narsa-hodisalar tarixiyli sababli ularning koʻpchiligi maʼnosi hozirgi davr uchun notanish boʻladi. Gʻafur Gʻulom tasvirlanayotgan davrning koloritini berish va kitobxon koʻz oʻngida oʻtmish voqealarini yaqqol gavdalantirish maqsadida bunday soʻzlardan foydalandi. Masalan, omoch, qozi, amir, bek, qul, choʻri, kanizak, taxt, botmon, oʻlpon, podsho, kartochnka (non kartochnkasi) kabilar.

Gʻ.Gʻulom tarixiy qatlamga oid leksik birliklardan hikoyalari tilining badiiyatini taʼminlashda oʻta sinchkovlik va mahorat bilan foydalangan. Zero, badiiylik asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xalqchilligi, shakl va mazmun birligiga erishilishidagi mahorat bilan belgilanadi.

Yozuvchi xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda qalam tebratmasin, tarixiy qatlamga oid leksik birliklardan voqelikka davr ruhini berish orqali xalqchillikni taʼminlash, personajlarning xarakter-xususiyati, nutqini individuallashtirish, badiiy matnga koʻtarinkilik bagʻishlash kabi uslubiy maqsadlarda foydalangan. Gʻ. Gʻulom haqida mashhur belorus shoiri Yakob Kolas shunday degan edi: “Gʻafur Gʻulom! Uning nomini tilga olganda, mening tasavvurimda Oʻrta Osiyoning eng yirik shahri Toshkent, qizil, oq va nomlarini men bilmaydigan ming turli gullarga burkangan yam-yashil park va bulvarlar gavdalanadi. Uning poeziyasida Gʻafur Gʻulomdek ajoyib shoirni tarbiyalab yetishtirgan va menga ham jonajon boʻlgan Oʻzbekistonning goʻzalligini koʻraman”³⁷.

Gʻ.Gʻulomning tarixiy mavzuga bagʻishlangan «Netay», «Yodgor», «Shum bola», “Koʻkan”, “Toʻy” qissalari, «Tirilgan murda», «Mening oʻgʻrigina bolam»,

³⁷ Дадабоев Х. Гафур Гулом ҳикояларида бадий тасвирнинг лексик воситалари // Гафур Гулом ва давр. – Тошкент, 2003. – Б.

“Mulla Nasriddin Afandi va shayton alayhila’na” kabi hikoyalarida tarixiy qatlamga oid leksik birliklarning salmog‘i ancha kengdir. Yozuvchi tarixiy so‘z (istorizm)lardan tarixiy voqea-hodisalarning haqqoniy (real) tasvirini yaratish, badiiy asarga tarixiy ruh berishda o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalangan. Adib hikoyalaridagi *dodxo*, *qozi*, *ellikboshi*, *mingboshi*, *amin* kabi tarixiy so‘zlar ijtimoiy nufuz, unvon, mansab semasini ifodalovchi leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Ular orqali yozuvchi o‘tmishdagi ijtimoiy munosabatlarni, sinfiy tabaqalanish natijasida ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi va buning zahirida jabr-zulm, nochorlikning salbiy oqibatlarini real tasvirlashda va voqelikka davr ruhini berishda foydalangan.

Yozuvchi kiyim-kechak, narsa-buyum nomlarini ifodalovchi so‘zlarning leksik-semantik guruhiga kiruvchi *paranji*, *chimmat*, *chilim*, *qumg‘on* kabi tarixiy so‘zlardan ham istifoda etib, o‘tmishdagi o‘zbek xalqining turmush-tarzi, o‘ziga xos milliy madaniyatining real tasvirini bergan.

G‘.G‘ulom aksariyat zamonaviy mavzuda hikoyalar yozgani bois, uning ijodida tarixiy qatlamga oid birliklar oz miqdorni tashkil etadi, shuning uchun tarixiy so‘zlarning LSG doirasini davom ettirish mumkin emas. Tarixiy romanlar ustasi Oybek ijodida esa tarixiy so‘zlar miqdori katta. S.U.Boymirzayeva Oybek prozasida qo‘llangan tarixiy so‘zlarni sakkizta LSGga bo‘lib tasnif qiladi va ular tarixiy voqelikni va davr ruhini tasvirlashga xizmat qilishini qayd etadi³⁸. Z.Hamidov G‘.G‘ulomning nasriy asarlarida qo‘llangan tarixiy so‘zlarni uslubiy qo‘llanilishiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘lib ko‘rsatadi va uni kengaytirish mumkinligini aytib o‘tadi³⁹.

Arxaizmlarning tarixiy so‘zlardan farqli ravishda badiiy nutqqa nazokatli, “yumshoq” ruh berishi hamda yozuvchi tomonidan satirik va yumoristik asarga hazil-mutoyiba, masxara, kinoya ruhini berishi mumkinligi, istorizmlar esa bunday xususiyatga ega emasligi e’tirof etilgan⁴⁰.

³⁸ Боймирзаева С.У. Кўрсатилган номзодлик диссертацияси. – Б. 43-45.

³⁹ Ҳамидов З. Ғофур Ғулом прозаси лексикаси. – Тошкент, 2003. – Б. 34.

⁴⁰ Абдурахмонов Х. Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 15-21; Шомаксудов А., Расулов И. ва бошқ. Кўрсатилган асар. – Б. 51-52.

Ma'lumki, har qanday soʻzning ma'no qirralari, qoʻllanilish uslubi badiiy matn doirasida yozuvchi ideolektiga xos boʻlgan pragmatik maqsadlarni yuzaga chiqarish bilan namoyon boʻladi. Soʻzni qanday va qay maqsadlarda qoʻllash, albatta, yozuvchi uslubiga xos. Kuzatishlarimiz asosida Gʻ.Gʻulom hikoyalarida qoʻllangan tarixiy soʻzlarning arxaizmlarga xos stilistik vazifalarda kelishining guvohi boʻldik. Bu esa, Gʻ.Gʻulomning Oybek va A.Qahhordan farqli ravishda, tarixiy soʻzlardan foydalanishdagi oʻziga xos mahoratini belgilaydi. Masalan, yozuvchining «Netay» nomli hikoyasida qoʻllangan *sohibqiron, xon, vazir, shoh, shamshir, tugʻ, kuloh, gʻazot* kabi tarixiy soʻzlar bir qarashda asarga oʻtmish koloritini berganday tuyuladi. Lekin Gʻ.Gʻulom bu leksik birliklardan kulgi yaratish, hikoyaga satirik mazmun kiritish maqsadida individual foydalangan.

Tarixiy soʻzlar tarixiy mavzuga bagʻishlangan adabiy janrlarda oʻtmish davr ruhini haqqoniy aks ettirishi hammamizga ma'lum. Agar bunday tarixiy qatlamga oid leksik birliklar zamonaviy mavzudagi adabiy janrlarda qoʻllanilsa, ma'lum bir uslubiy maqsad koʻzda tutilgan boʻladi. Masalaga aniqlik kiritish uchun tarixiy va zamonaviy mavzudagi misollarni muqoyasa qilib koʻraylik: haram, saroy, shoh, shahzoda, feodal, choʻri, oqsoch...

Gʻ.Gʻulom ijodida tarixiy soʻzlar guruhi oʻz nominativ maʼnosi bilan oʻtmish koloritini berib, voqelikni real aks ettirishga xizmat qilgan boʻlsa, mazmunan leksik qurshovda ishtirok etgan tarixiy soʻzlar esa badiiy matnda nominativ maʼnosi bilan bir qatorda yozuvchi ideolektiga xos illokutiv pragmatik maqsadlarni yuzaga chiqaruvchi uslubiy vosita sifatida qoʻllangan. Jumladan, yozuvchi tarixiy qatlamga oid leksik birliklar bilan personaj nutqini individuallashtirish orqali badiiy matnga kuchli ekspressivlik olib kirgan.

Badiiy asarlardagi tarixiy soʻzlar tarixiy ruh-kolorit yaratish uchun muhim vosita boʻlib xizmat qilishi bilan barcha davr tilining yaqqol kartinasini aks ettiradi.

Aytilgan fikrlar eskirgan soʻzlar haqida baʼzi bir umumiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

1. Eskirgan soʻzlar til tarixi bilan zich bogʻlangan holda tilning ichki taraqqiyot qonunlariga muvofiq, turli shakl va formalarda yuzaga chiquvchi tarixiy hodisadir.
2. Eskirgan soʻzlarni tarixiy oʻrganish leksik qatlamda muhim ilmiy natijalarga erishish uchun yordam beradi.
3. Oʻtmish voqealarini tasvirlashda tarixiy asarlar syujetidan foydalaniladi yoki oʻtmish voqealari hozirgi asar syujeti ichida eslab oʻtiladi.
4. Har ikki holda ham istorizmlar voqelikni toʻgʻri aks ettirishga xizmat qildirilgan.

2.3. Gʻ. Gʻulom ijodida dialektal soʻzlarning uslubiy xususiyatlari

Oʻzbek adabiy tili xalq shevalariga taʼsir etib, ularning xususiyatlarini oʻziga yaqinlashtirib borar ekan, oʻrni bilan jonli tildan oziqlanib, shevalardagi soʻz va iboralar hisobiga boyib boradi.

Oʻzbek shevashunosligi XX asrning 20-yillaridan boshlab YE.Polivanov, K.Yudaxin, Gʻozi Olim Yunusov, A.Borovkov, V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, H. Gʻulomov, M.Mirzayev, A.Aliyev, A.Shermatov, X.Doniyorov, N.Rajabov, K.Nazarov kabi olimlar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan oʻrganilib, fan sifatida shakllandi va rivojlandi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab dialektizmlarning badiiy asar tilidagi semantik-stilistik xususiyatlari oʻrganila boshlandi⁴¹. Sheva soʻzlari ham boshqa tasviriy vositalar singari oʻziga xos estetik qimmatga ega. Shu bois yozuvchi va shoirlar unga ifodalilikni, ekspressivlikni qolaversa, tabiiylik, soddalik, xalqchillikni yuzaga chiqaruvchi tasviriy vosita sifatida murojaat etadilar va undan foydalanishga intiladilar. «Dialektizmlar badiiy nutqda juda katta estetik vazifani bajaradi. Ammo dialektizmlarning badiiy asar tilidagi estetik qimmatini aniqlashda

⁴¹ Файзуллаев Б. Дialeктизмы в художественных произведениях: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1979. – С. 24; Шу муаллиф. Бадий адабиётда диалектизмларнинг стилистик вазифалари // Тилшунослик масалалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 203-212; Шу муаллиф. Диалектизмлар ва уларнинг бадий адабиётдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. – №4. – Б. 34-38; Шу муаллиф. «Олтин водийдан шабадалар» романида диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №3. – Б. 62-66; Назиржонова Ф. Миртемир шеърларида диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №1. – Б. 82-84; Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида диалектизмларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. – Самарқанд, 1979. – Б. 29-34; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 53-57. Охунов Н. Ғафур Ғулом асарларида диалектизм ва эскирган сўзларнинг қўлланилиши // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2003. – №4. – Б. 37-40.

yozuvchining qanday dialektal soʻzni ishlatganligiga eʼtibor berish lozim. Dialektizmlarning koʻproq qoʻshimcha izoh talab qilmaydiganlarini, kitobxon umumiy kontekstga koʻra tushunib olaveradiganlarini badiiy nutqqa kiritish maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda, dialektizmlar oʻz meʼyorida qoʻllangandagina u yoki bu stilistik vazifani bajara oladi, aks holda, butun badiiy asarning estetik qimmatini pasayadi»⁴².

Sheva soʻzlarining semantik-stilistik xususiyatlarini toʻgʻri anglab, oʻz hikoyalarida badiiy maqsad sari toʻgʻri yoʻnaltira olgan yozuvchilarimiz orasida Gʻ.Gʻulomning oʻziga xos oʻrni bor. Sodda, tabiiylik, soʻzga katta estetik did bilan yondashish, asarning «oʻqishli» boʻlishi uchun intilish Gʻ.Gʻulom uslubining oʻziga xos xususiyatlari boʻlib, ular badiiy matnning shevaga xos soʻzlar bilan ortiqcha toʻldirilishiga monelik qiladi. Yozuvchi taʼbiri bilan aytganda, badiiy matnga ortiqcha «tuflab yopishtirilishi» mumkin boʻlgan sheva unsurlari qoʻllanilishining oldini oladi. Yozuvchi hikoyalarida qoʻllangan shevaga xos birliklar u qadar katta miqdorni tashkil qilmaydi, biroq ulardan badiiy matnning emotsional-ekspressivligini, obrazlilikini taʼminlashda katta mahorat bilan istifoda etilganligi kishi diqqatini tortadi.

Badiiy asar matnida shevaga xos soʻzlarning leksik, fonetik, grammatik dialektizmlar kabi turlari uchraydi. Biz tahlil obyekti qilib olgan Gʻ.Gʻulom hikoyalarida ularning, asosan, leksik turi ishtirok etgan va oʻrni bilan yozuvchining badiiy-gʻoyaviy maqsadlariga xizmat qilgan.

Personajlar nutqining tabiiyligini taʼminlashda ogʻzaki soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan dialektizmlarning xizmati katta. Dialektizm-badiiy taʼsirchanlik vositasidir. Asarda tasvirlangan voqealarning aniq oʻrni maʼlum boʻlmasa-da, personajlar nutqida qoʻllanilgan sheva elementlarining doirasi aniq boʻlishi shart. Chunki hech bir kishi oʻzbek milliy tili sostavidagi barcha shevalarni aralash holda qoʻllamaydi. Agar sheva elementlari juda aniq va oʻrinli qoʻllanilgan boʻlsa, kitobxon shu element orqali asar qahramonlarining joyini belgilashi mumkin. Bu shart sanʼatkorlardan har bir milliy tildagi sheva va dialektlarning oʻziga xos

⁴² Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 29.

tomonlarini bilishini talab etadi. Badiiy asar tilidagi dialektizmlarning qo'llanish sababini aniqlashda yozuvchining maqsadi va metodi, dunyo qarashi, ijodining g'oyaviy mazmuni san'atkor xohishi bilan uzviy bog'liqligini hisobga olish zarurat tug'iladi. Chunki badiiy asarlarda qo'llanilgan dialektizmlar bir necha xil funksiyani bajarishi mumkin: 1) Personajning yashagan va yashayotgan geografik o'rnini, personaj mansub bo'lgan aholi shevasini aniqlash. 2) Personaj xarakterini tasvirlash. 3) Personaj mansub bo'lgan aholi etnografiyasiga xos tomonlarni ko'rsatish. 4) Personajning bilim, dunyoqarashini ko'rsatish va hokazolar.

Tilshunos olim B.Choriyev dialektizmlarni badiiy ta'sirchan vosita sifatida e'tirof etib, shunday yozadi: "Asarda tasvirlangan voqeaning o'rni aniq bo'lmasa-da, qahramon nutqida qo'llangan sheva unsurining doirasi aniq bo'lishi shart... Agar sheva unsuri juda aniq va o'rinli qo'llangan bo'lsa, kitobxon shu unsur orqali asar qahramonining joyini belgilashi mumkin"².

Xalq tilining bilimdoni, so'z ustasi G'.G'ulomning "Yodgor", "Shum bola" qissalarida ham dialektizmlar so'zlashuv nutqining ifoda vositasi sifatida ishlatilgan. Yozuvchi asar timsollari Jo'ra, Saodat, Yodgor, uning opasi, Qoravoy, Sariboy nutqida shevaga xos vositalarni qo'llash orqali ularning xarakteridagi o'ziga xos detallarni bo'rttirib ko'rsata olgan. Fikrimizni "Shum bola" asaridagi personajlar nutqida uchraydigan ayrim dialektal va shevaga xos so'zlarga to'xtalsak, masalan, "...*Ering ikkovimizning ishimizni sezib qolganmi deymanov, yoki **puk** berib qo'ydingmi?*" ("Shum bola", 176- bet) "*Xalq **ma'tal** bo'lib qolmasin*", "*Hammasi **dang uchib** yotibdi*", "*Seni **jatinnga** qovun bilan tarvuz rattachining qo'lida qolib ketdik*" ("Shum bola", 150- bet). Berilgan gaplarda mahalliy xalq tilida, nutqida uchraydigan **puk** – **sir berish**, **ma'tal** – **kuttirib qo'yish**, **mahtal** so'zining xalq nutqidagi shakli, **dang uchib** – **dong qotib**, **jatinnga** – **kasringga** kabi dialektizmlar ishlatilgan bo'lib, ular har bir timsol nutqini xususiylashtiradi va o'sha davr xalq tilida ishlatilgan so'zlar haqida ma'lumot beradi.

². Б.Чориев. "Ф.Гулом поэзиясининг лексик-семантик хусусиятлари".Т. "Voris nashriyoti",2007.

G'.G'ulom o'z asarlarida dialektizmlarni qahramon nutqida ko'proq ishlatib, asarning leksik-semantik xususiyatlarini ochib beradi. Darhaqiqat, G'.G'ulom asarlarining aksariyatida qahramon nutqida uchraydigan dialektizmlar uning millati, shevasi, xarakterini belgilab beradi. Misollarga murojaat qilaylik: "**Shum bola**" asarida **Qoravoy**, **Omon** va **mulla Sharifjonga** cho'lda bir otliq uchraydi, "...Bir otliq qishloq o'zbeki edi... bizning tepamizga kelib otni arang to'xtatdi.

- Salom alaykum **mo'ldakalar**, **djo'l** bo'lsin...

- **Alay** bo'lsin.

- Ichlaringda imon shariatini biladigan, o'lik **jo'vatirg'anlaring** barmi?

- Topilib qolar, nima xizmat edi...?

- ... sizlarni **xudayning o'zi jetkazdi**. **Qani juringlar**, aytpasam. **O'zi jaqinda bizding ko'chkin** chorva elet bar. **Bir jigiti**biz povqaslanib, qaza qig'an edi. **Uni juvib**, janoza o'qiydig'an kishi **djo'q...**"

Bu parchadan muallif so'zida emas, ko'proq personajlar nutqida dialektizmlarning qo'llanganligi, adib aytmoqchi bo'lgan *qishloq o'zbeki* "j"lovchi shevaga mansub aholi vakili ekanligi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari adib o'z asarlarida jonli xalq tilida uchramaydigan **janda** – qalandalarning quroq kiyimi, **to'qol** – kemtik, **kam ko'st**, **uvadaband** – eski-tuski, yirtiq kiyim bosh, **chechovlanib** – g'ayratga kirib, tezlanib, **kepchik** – yog'och gardishiga xom teridan qoplangan, g'allani yelpish, sovurish uchun ishlatiladigan ro'zg'or buyumi, **jizgul** – qog'oz va yozuvlar solinadigan charm papka, **zumra** – to'da, **guruh**, **boshput** – pasport, **daqqi** – loqayd bo'lib qolgan, holdan toygan, **begim** – belgilangan bozor kunlaridan boshqa kun kabi bir qancha dialektizmlarni qo'llab o'z leksikasini turli so'zlar hisobiga boyitib borgan va bu orqali asarlarining betakrorligiga erishgan.

Dialektizm hayotni haqqoniy tasvirlash, personaj xarakterini ochish vositasigina bo'lib qolmay, badiiy ijod tilini ham boyituvchi xazinadir. Shu bois, san'atkor shoirlar etnografik va leksik dialektizmlardan ko'proq foydalanishga harakat qiladilar. Etnografik va mustaqil leksik dialektizmlarning badiiy ijodda

personajlar nutqida qo'llanishi badiiy asar tilining mukammal va puxta bo'lishini ta'minlaydi.

Ravshanki, G'afur G'ulom she'rlarida dialektizmlar muallif nutqiga nisbatan personajlar nutqida ko'p ishlatilgan. Muallif nutqida qo'llangan dialektizmlar ko'pincha etnografik va mustaqil leksik dialektizmlardir. Fonetik dialektizmlarni o'z nutqida ko'p ishlatishni avtor noto'g'ri hisoblamaydi. Xullas, G'. G'ulom poeziyasida leksik dialektizm ham, fonetik dialektizm ham, morfologik dialektizm ham, sintaktik dialektizm ham o'rinli ishlatilgan.

G'afur G'ulom personajlar xarakterini va ular harakat qilgan konkret tarixiy sharoitni aniqlashtirish, yorqin qilib ko'rsatish maqsadida o'z she'rlarida dialektal so'zlardan foydalanadi. Bunday so'zlar o'zbek adabiy tiliga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda ayrim dialektal so'zlar uchrab turadi. Voqeaga yoki asar qahramonining, personajlarning belgi, xususiyatiga ishora qilish uchun o'sha voqelik yuz bergan joy dialekt elementlarini qo'llash mumkin.

Ikkinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

1. Tarixiy soʻzlar tarixiy mavzuga bagʻishlangan adabiy janrlarda oʻtmish davr ruhini haqqoniy aks ettirishi hammamizga maʼlum. Agar bunday tarixiy qatlamga oid leksik birliklar zamonaviy mavzudagi adabiy janrlarda qoʻllanilsa, maʼlum bir uslubiy maqsad koʻzda tutilgan boʻladi. Adib hikoyalarida bu holni yaqqol kuzatish mumkin.

2. Dialektizmlar ham boshqa tasviriy vositalar singari oʻziga xos estetik qimmatga ega. Ular asar badiiyatida tabiiylik, soddalik, xalqchillikni yuzaga chiqaradi. Gʻ.Gʻulom asar badiiyatiga xizmat qilmaydigan til vositalaridan voz kechib, doimo tabiiylikka, soddalikka, asarlarining «oʻqishli» boʻlishiga intilgan.

3. Etnografik soʻzlar ham dialektizmlarning bir koʻrinishi boʻlib, u asosan, u adabiy tilda maʼnodoshi mavjud emasligi bilan farqlanadi. Yozuvchi hikoyalarida voqelikni real tasvirlashda, unga mahalliy-milliy ruh bagʻishlashda, personajlarning dunyoqarashini, eʼtiqodini, ruhiyatini jonli ifodalashda etnografik soʻzlardan mahorat darajasida foydalana olgan.

4. Gʻ.Gʻulom jonli soʻzlashuv tiliga xos leksik birliklardan hikoyalari tilining badiiy-obrazlilikini, estetik taʼsirchanligini oshirishda, personajlar nutqini, xarakter-xususiyatlarini oʻziga xos tarzda ifodalashda, jonli soʻzlashuv tiliga xos milliy-mahalliy kolorit bagʻishlashda, qolaversa, oʻzining individual uslubiga xos kinoyali tasvir yaratishda, xususiy yashirin maʼnoga ishora qilishda, qahramonlar portretini, intim-ruhiy kechinmalarini intensiv usulda tasvirlashda oʻta mohirlik bilan foydalanib, ularni asarning umumiy gʻoyasiga xizmat qiluvchi obrazli taʼsirchan tasviriy vositaga aylantira olgan.

5. Vulgarizmlar badiiy matnga kuchli ekspressiya olib kiruvchi lisoniy vositalardir. Yozuvchi ulardan hikoya personajlarining xarakter-xususiyatlari, nutqini individuallashtirishda, intim-ruhiy kechinmalarni ifodalashda, voqelikka mos tarzda ichki va tashqi maʼnaviy olamidagi dunyoqarashini yaqqol aks ettirishda hamda ularning milliy mansubligiga urgʻu berishda unumli istifoda etgan.

XULOSALAR

1. G'.G'ulom ko'chim turlaridan foydalanishda ularning konnotativ-ifoda semalariga alohida e'tibor bergan. Bu semalarning badiiy mazmun kasb etishi va badiiy asarning umumg'oyasi bilan uyg'unlashuvi uning poetik til mahoratining bir qirradi sifatida yuzaga chiqqan.
2. G'.G'ulom hikoyalarida tarixiy so'zlarning poetik aktuallashuvga moyilligi aniqlandi. Kuzatishlar tarixiy so'zlarning arxaizmlarga xos stilistik vazifalarda kelishini tasdiqladi.
3. Har qanday til birligining uslubiy imkoniyatlari kabi noadabiy qatlamga oid so'zlarining semantik-stilistik imkoniyatlari ham matn doirasida oydinlashadi. So'z tanlash yozuvchi ixtiyorida ekan, uni qanday usulda bayon etish ham uning individual salohiyatiga, mahoratiga bog'liq.
4. G'.G'ulom hikoyalarida muallif nutqida qo'llangan dialektal so'zlar orqali ham obrazlilik, estetik-ta'sirchanlik katta mahorat bilan ifodalangan, shuningdek, adib hikoyalarida qo'llangan etnografik so'zlar, asosan, xalqning turmush-tarzi, e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan milliy-estetik hodisalarni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.
5. G'.G'ulom hikoyalarida vulgarizmlar jonsiz predmetlarga nisbatan ham ishlatilgan. Bunda u o'ziga xos uslubiy vazifa bajarib, implitsit mazmun ifodalagan hamda personajning intim-ruhiy holatini qoliplovchi vositaga aylangan.
6. Epitet uchun so'zning o'z yoki ko'chma ma'noda ekanligi muhim emas, balki narsa yoki hodisadagi alohida olingan belgining kuchaytirilishida, ta'kidlanishida va uning estetik maqomida deb tushunish lozim. Individual epitetlarda yozuvchining ham subyektiv, ham emotsional munosabatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu munosabat bilan epitetlar nutq kechimida pragmatik axborot tashiydi. G'.G'ulom hikoyalarida epitetlarning so'zlar, so'z qo'shilmalari, kengaygan birikmalar, iboralar bilan ifodalangan turlari badiiy mahorat darajasida qo'llangan.

7. Gʻ.Gʻulom leksik va grammatik takrorlardan foydalanar ekan, oʻrni bilan ularni badiiy maqsad sari yoʻnaltira olgan. Natijada birgina takrorning oʻzi yozuvchi yetkazmoqchi boʻlgan fikrning ixcham, taʼsirchan shakli boʻlib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T.: O‘zbekiston, 1992. – 80 b.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat // Tuzuvchi va nashr uchun mas’ullar: N.Komilov, K.Bo‘ronov. t.: O‘zbekiston, 1995. – 129 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 364 b.
4. Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘. – T.: O‘zbekiston, 1994. – 62 b.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. 366 b.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 1992, - 366 b.
7. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. – T.: O‘zbekiston, 1993, - 349 b.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O‘zbekiston, 1997, - 384 b.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: O‘zbekiston, 1998, - 420 b.
10. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O‘zbekiston, 1999, - 410 b.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild. – T.: O‘zbekiston, 1993, - 60 b.
12. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin: Prezident Islom Karimovning «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblari. – T.: O‘zbekiston, 1998, - 30 b.
13. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1999, - 682 b.

14. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston, 1999, - 48 b.

15. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2000. - 25 b.

16. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir. – T.: O‘zbekiston, 2005. T.13, - 174-222 b.

17. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008, - 176 b.

18. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni // 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. 20-29 b.

19. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. 31-61 b.

20. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston. 2000. – 80 b.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida» Qarori - Xalq so‘zi gazetasi, 2006 y., 26 avgust.

22. Karimov I.A. Ulug‘ alloma Abduholiq G‘ijduvoniyni 900 yilligiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqi - Xalq so‘zi gazetasi, 2003, 28 noyabr.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining stilistik normalari nutq madaniyati masalalari. T.: 1973.

2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T.: 1973.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati.1-1U. T.: Fan, 1983-86.

4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: 1985.
5. Boboyeva S. Hamid Olimjon poeziyasining leksik xususiyatlari. T.: Fan, 1989.
6. Bafojev B. Ko'ha so'zlar tarixi. T.: 1991.
7. Dadaboyev H. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi bir ma'nodoshlik xususida. O'zbek filologiyasi masalalari. T.: 2002.
8. Dadaboyev H. G'afur G'ulom hikoyalarida badiiy tasvirning leksik vositalari // G'afur G'ulom va davr. – Toshkent, 2003. – B. 89-94.
9. Doniyorov X. So'z san'ati. T.: 1972.
10. Jumanazarov Y. Til va uslub. T.: 1973.
11. Mukarramov M. O'zbek tilida sifatlash. O'TA, 1973. 6-son.
12. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tahlili: Filol.fan.nom... diss. – Andijon, 2003. – 136 b.
13. Nazirjonova F. Mirtemir she'riyatida dialektizmlar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №1. – B. 82-84.
14. Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – №2. – B. 84-86.
15. Muhammadjonova G. G'afur G'ulom she'rlarining ba'zi bir til xususiyatlari. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. T.: Fan. 1975.
16. Sabirdinov A. Oybekning she'riy mahorati. – Toshkent: Fan, 2005. – 170 b.
17. Samadov Q. Oybek - so'z san'atkori. T.: 1965.
18. Sodiqova M. Fe'l stilistikasi. T.: 1972.
19. To'rabekova S. G'afur G'ulom poeziyasidagi badiiy tasvir vositalari-ning ba'zi xususiyatlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. – №6. – B. 32-37.
20. To'ychiyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. T.: O'qituvchi, 1996.
21. Fozilov E. Hayot haqiqati va so'z qudrati. O'TA, 1979. 1-son,
29. Choriyev B. G'afur G'ulom she'riyati tili. T.: 1994.
31. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi, 1-11 kism. T.: 1974.
41. Shoabdurahmonov Sh. Mohir so'z san'atkori, O'TA, 1973, 4-son.
42. Shoabdurahmonov Sh., va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.:

O'qituvchi. 1980.

43. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyatining lingvopoetikasi: Filol. fan.nom... diss. – Toshkent, 2007. – 144 b.
44. Shukurov N. G'afur G'ulomning tildan foydalanishdagi mahoratiga doir. «O'zbek tili va adabiyoti masalalari».
45. O'zbek tili leksikologiyasi. T.: 1981.
46. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. T.: Fan, 1982.
47. Qodirov P. Til va dil. T.: 1972.
48. Qodirov M. Badiiy asar tilini o'rganish masalalari. O'TA, 1987,3-s.
49. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. T.: 1980.
50. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. T.: 1975.
51. G'afur G'ulom. Asarlar. O'n tomlik. Beshinchi tom. T.: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. 1973.
52. G'afur G'ulom. Asarlar. Besh tomlik. To'rtinchi tom, T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1968.
53. G'afur G'ulomning badiiy olami. T.: Fan. 1984.
54. Hamidov 3. So'z san'ati va san'atkor mahorati. T., 1991.
53. Hamidov 3. O'zbek tili tarixi muammolari xususida, o'zbek filologiyasi masalalari. T.: 2002.

III. Internet saytlari:

1. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>

GLDV vebsayti:

a) <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>

b) <http://www.ziyonet.uz>

B) <http://www.ziyouz>

2. <http://www.google.uz>